

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

AXMEDOV SHAVKAT ALIMJONOVICH

**«BANK FAOLIYATINI INNOVATSION BOSHQARUV
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH»**

«Moliyaviy menejment» fakulteti
dekani iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Astanakulov Olim Tashtemirovich
« ____ » _____ 2015

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»
«Menejment va marketing» kafedrası
mudiri iqtisod fanlari nomzodi
Jumaev Otabek Tolibovich
« ____ » _____ 2015

Bitiruvchi :

5230200 - “Menejment”- ta’lim yo’nalishi
4 -kurs talabasi
Axmedov Shavkat Alimjonovich

Ilmiy rahbar:

o’qituvchi Mamurov Samadjon Igamnazarovich

TOSHKENT - 2015

Men, Axmedov Shavkat Alimjonovich ushbu BMIning mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

_____ Axmedov Shavkat Alimjonovich

MUNDARIJA

	bet
KIRISH.....	3
 I BOB. BANK FAOLIYATINI INNOVATSION BOSHQARISH- NING NAZARIY ASOSLARI.....	 6
1.1 Bank va bank tizimining mohiyati va turlari.....	6
1.2 Banklarni innovatsion boshqarishda personalni boshqarish- ning o'ziga xos xususiyatlari.....	14
1.3 Bank faoliyatini innovatsion boshqarishda yangi texnologiyalardan samarali foydalanish.....	24
 II BOB. «IPOTEKA-BANK» AKSIYADORLIK TIJORAT IPOTEKA BANKINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI...	 29
2.1 “Ipoteka bank” ATIB ning tashkil topishi tarixi hamda missiyasi.....	29
2.2 “Ipoteka-bank” ATIBning tashkiliy strukturasi, ijtimoiy- iqtisodiy hamda moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili.....	35
 III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHARO- ITIDA BANKLARDA INNOVATSION BOSHQARISH- NI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	 46
3.1 Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda “Ipoteka bank” ATIBning ishtirokini yaxshilash istiqbollari.....	46
3.2 Banklarni innovatsion boshqarishning xorij tajribasi.....	52
 XULOSA.....	 61
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	 63

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Istiqloлга erishganimizdan so'ng, tijorat bank tizimida ham sezilarli darajada o'zgarishlar yuzaga keldi.

Mamlakatimizda tijorat bank tizimining uzluksiz rivojlanishi bozor munosabatlari sharoitidagi ob'yektiv zaruriyat bo'lib, bu o'z navbatida tijorat banklar innovatsion foalyatini uzluksiz nazorat qilishni va ularni samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlar bazasining yaratilishining uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

“Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014 yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi.

Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3 martadan ziyod oshdi.”¹

O'zbekiston bank tizimi o'z sifatini yangi bosqichini boshidan kechirmoqda. Bu makroiqtisodiy vaziyatdagi jiddiy o'zgarishlar, umumiqtisodiy vazifalarni hal etishda banklarning innovatsion faoliyati va ta'sirining o'sishi bilan bog'liq. Chunki kredit va moliya operatsiyalarini asosiy qismini qamrab oladigan kredit tizimining hal qiluvchi bo'g'ini bank tizimidir.

O'zbekistonda bank tizimi mustaqildavlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ladi. Bank tizimini institutsional ahamiyat kasb etishda “O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hamda banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi hal qiluvchi rol o'ynaydi². Ikki darajali

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi”. 2014 yil 17 yanvar.

² O'zbekiston respublikasi bank tizimini isloh qilish me'yoriy hujjatlar to'plami T.: 2003 yil.

bank tizimining yaratilishi iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarga erishish va iqtisodiy islohotlarni mustaqil, o'ziga xos modelini hayotga tadbiq etish uchun moliyaviy tizim barpo etdi.

Shunga ko'ra biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda johon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai nazaridan shakllantirishimiz lozimligi mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki misolida respublikada bank tizimini innovatsion rivojlantirish va moliyaviy ahvolini mustahkamlash yo'nalishlariga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekiston Respublikasining moliyaviy qonunlari va bank-moliya tizimini tadqiq qilish hamda o'rganish va moliyaviy islohatlarning o'tkazishning muhimligini asoslash;

- O'zbekiston Respublikasida bank faolyatini innovatsion boshqarish imkoniyatlarini aniqlash;

- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda moliyaviy siyosat, uning xususiyatlari hamda moliyaviy siyosatni takomillashtirishning zarurligini asoslash;

- «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka bankida banklarning kredit tizimida tutgan iqtisodiy o'rnini aniqlash va unig asosiy tuzilmalarini ko'rib chiqish;

- «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka bankining hozirgi zamon kredit berish tizimi va unig asosiy belgilarini belgilash;

- «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki faolyatini tahlil qilish, iqtisodiy mohiyatini, o'rganish ularni xorijiy tajribasi bilan solishtirish;

- Banklarni yangi yangi xizmat turlarini taklif qilishi, bankdagi valyuta operiyatsiyalarini boshqarishni yaxshilash;
- Bank xodimlarini boshqarishni yaxshilash tufayli mijozlarga yaxshi xizmat ko'rsatish yo'llarini taklif etish;
- Bank tizimini innovatsion rivojlantirish va ularning moliyaviy ahvolini mustahkamlash borasidagi muammolarni o'rganish.

BMI ob'yekti sifatida «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki tanlandi.

BMI predmeti bo'lib, «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki misolida Respublikada bank tizimini innovatsion faoliyatini rivojlantirish va moliyaviy ahvolini mustahkamlash yo'nalishlari hisoblanadi.

BMIning nazariy-amaliy ahamiyati. Respublikada bank tizimini rivojlantirish va moliyaviy ahvolini mustahkamlash yo'nalishlari mavzusi borasida xorijlik bir qator taniqli iqtisodchilar, jumladan E.Dollan, J.Keyns, V.Kolisnekov, L.Krasovina, O.Lavirushin tamonidan o'rganilgan. O'zbekiston iqtisodchi olimlaridan Yo.Abdullayev, Sh.Abdullayeva, S.Berjanov, A.Qodirov, S.Norqobilov, O.Olimjanov, Z.Xolmahmadov, T.Qoraliyevlarning ilmiy ishlaridan mazkur masalani alohida muhim jihatlari o'z aksini topgan.

Bundan tashqari, iqtisodchi olimlar Respublikada bank tizimini rivojlantirish va moliyaviy ahvolini mustahkamlash yo'nalishlari yuzasidan hozirgacha bajarilgan tadqiqotlar asosan rejali iqtisodiyot tamoyillariga muvofiqlashtirilgan bo'lib, bu boradagi muammolarning zamonaviy yechimlarini batafsil qamrab olmaydi.

Bu esa mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini va BMI mavzusini dolzarbligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, mazmunan uzviy bog'langan 3ta bob, xulosalar, adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB. BANK FAOLIYATINI INNOVATSION BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Bank va bank tizimining mohiyati va turlari

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank - bu tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul-mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Ba'zi adabiyotlarda bank - bu korxona deb ham izox beriladi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat bankalarining faoliyatini korxona faoliyatiga shu jihatdan o'xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o'z faoliyatini o'z asoschilari-aksionerlarning manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdan iborat.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu bankarda yig'iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmatlarini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog'onasi hisoblanadi.

Bank tizimi orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy sohasida markaziy bo'g'in sifatida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida hukmron mavqega ega bo'lgan, tovar, pul muomalasini boshqarish va u orqali tushum xo'jalik faoliyatini boshqarish muammosini olg'a suradi.

Shu sababli banklar, moliya - kredit jarayonlarini boshqarish markazlari sifatida faqat bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z ahamiyatlarini to'la namayon etadilar, moliyaviy tizimni markaziy bo'g'iniga, pul muomilasini tashkil qilish, uning barqarorligini ta'minlashning bosh sifatchisiga aylanadilar.

Shuni unutmaslik kerakki, banklar orqali pul saqlaydigan joy, uni tarqatadigan yoki kredit beradigan kassa emas. Banklar iqtisodiyotni boshqarish

va tuzilmaviy siyosatni amalga oshirishning qudratli qurolidir. Ma'lumki, bunday siyosatni moliya, kapital zaxiralarini qayta taqsimlash yo'li bilan ustivor yo'nalishlarda bo'lgan ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'yektlar yaratiladi. Banklar endi mablag'larni moliyaviy resiruslarni kreditlar tarzida, ya'ni yaxshi foyda va samara beradigan markazlarga, sohalarga, mintaqalarga yo'naltiriladi.

“Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3 martadan ziyod oshdi.

So'nggi yillar davomida «Mudis», «Standart end Purs» va «Fitch reytings» kabi etakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2011 yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko'rildi.

O'tgan 2014 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi ”.³

Kreditlashtirish borasida puxta o'ylanmagan siyosat yurtimizning su'niy ravishda o'rnatilgan past foiz stavkalari, mablag'larini havoga sovirishga, davlat byudjetida katta kamomadlarga va oxir oqibatda halokatga inflyatsiyaga olib keladi. Bularning hammasi mamlakatning qashshoqlashuviga olib keladi. Mashhur multimellioder Genri-Fordning fikriga ko'ra, “qashshoqlik ko'p jihatdan uning yuklarini joydan-joyga tashish tufayli sodir bo'ladi. Uzluksiz yotayotgan qor uyumi kabi, katta pul to'dasini hech bir maqsadsiz joydan-joyga ko'chirish va bunda tobora qashshoqlashib borayotganini sezmaslik mumkin.”⁴

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi”. 2014 yil 17 yanvar.

⁴ www.ford.com./Brief history of the Company.

Demak, zamonaviy bozor munasabatlarga asoslangan bank tizimini yaratish bozor islohatlarini, iqtisodiy qayta qurishni asosiy yo'nalishidir. Chunki, hozirgi zamonda samarali faoliyat yuritayotgan bank tizimiga ega bo'lmasdan turib, samarali ishlaydigan iqtisodiyotni yaratib bo'lmaydi.

Bank tizimiga banklardan tashqari ayrim iqtisoslashgan moliyaviy institutlar ham kiradi. Ular bank maqomiga ega bo'lmaslarda, bank operatsiyalarini amalga oshiradilar. Bundan tashqari bank tizimiga bank infratuzilmasini tashkil qiluvchi, pul kredit institutlarining ish faoliyatini ta'minlovchi boshqa muassasalari ham kiradilar.

Banklar mohiyati qanchalik bir xil bo'lmasin, mol sotishda ularning ko'p turlari faoliyat olib boradi. Eng avvalo emissiya kerak. Emissiya banklar naqd pul belgilarini muomalaga chiqaruvchi markaziy banklardan iborat.

Bajaradigan operatsiyalarining harakatiga qarab, universal va ixtisoslashgan banklarni farqlanaadi. Universal bank bir o'zi mijozlarga rang-barang operatsiya va xizmatlarni ko'rsatishga qodir bo'ladi. Universallikning boshqa qirralari ham bor, u faoliyatni cheklanmaganligini ham bildirish mumkin.

Bunday bank faoliyatini xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha xizmat ko'rsatadigan mijozlarning tarkibi operatsiyalar soni va hajmi, hamda mintaqalar bo'yicha ham xizmat doirasi chegaralanmagan bo'ladi. Ya'ni universal bank ko'pchilik tarmoqlarda kredit bersa, ixtisoslashgan bank ko'pincha xalq xo'jaligining bir tarmog'i yoki tarmoqchasiga korxonalar turkumiga xizmat ko'rsatadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lmagan mamlakatlarda bank tizimining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Bank tizimi tushunchasi oddiygina talqin qilganda, u o'z ichiga banklar va bankka xos funksiyalarini bajaruvchi nobank muassasalarini oladi.

Tashkiliy jihatdan bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli bank tizimlari mavjud. Rivojlangan davlatlarda ikki darajali bank tizimi mavjud bo'ladi. Unda birinchi bo'gin Markaziy banklar bo'lib, ular mamlakatdagi pul muomalasini tashkil va nazorat qilish rolini bajaradilar.

Ikkinchi bo'g'inda esa o'zlari mustaqil bo'lgan, ammo, Markaziy bank nazorati ostida faolyat olib boruvchi tijorat va ixtisoslashgan banklar hamda banklarga xos funksiyalarni bajaruvchi nobank muassasalar kiradi.

Bir bo'g'inli tizimda Markaziy va tijorat banklari bir xil darajada teng huquqli agentlar rolini bajaradilar, ya'ni barcha banklar davlatning banki bo'lib, Markaziy bank bo'limlari sifatida ish olib boradilar. Bunday tizim iqtisodiy rivojlangan totalitar rejimlar hukmronlik qilayotgan mamlakatlarga qodir.

Bank tizimi xususiyatlari haqida biz yuqorida ta'kidlab, uning asosiy elementi bo'lgan banklar va ularning turlari haqida umumiy tushunchalar bergan edik. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos bo'lgan yana bir xususiyati shundaki ularda banklar bilan bir qatorda bank bo'lmagan ammo banklarga xos funksiyalarni bajaruvchi ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari va pochta jamg'arma institutlari ham mavjud bo'ladi. Bunday moliyaviy tashkilotlarda bo'sh bank tizimi deyiladi. Ular ma'lum toifadagi mijozga, odatda bir yoki ikkita o'ziga xos moliyaviy xizmat turini taklif qiladilar. Ularning faolyati ko'pincha moliyaviy bozorning kichikroq bir segmentiga qaratilgan bo'ladi.

Uzoq yillar davomida jamiyatning rivojlanishi va unga mos tovar-pul munosabatlarning o'sib takomillashib borishi banklarning operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ko'lamining kengayib borishiga olib kelgan. Davlat, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatini muvofiqlikda olib borish, davlat va jamiyat a'zolarining pul mablag'lariga bo'lgan talablarini qondirgan holda davlatning iqtisodiy jihatdan o'sishi va barqarorligini ta'minlash maqsadida banklar o'rtasida ular bajaradigan funktsiya va operatsiyalar ko'lamini taqsimlana borgan, ya'ni davlat tomonidan, davlat manfaatlarini himoya qilgan holda faolyat ko'rsatuvchi banklar alohida jamiyat a'zolari bilan ishlovchi banklar yoki yuqoridagi ikki yo'nalishi ham o'zida mujassamlashtirilgan banklar shakllana borgan.

Hozirgi zamonda umuman qabul qilingan tizim bo'lib, ikki pog'onali bank tizimi xizmat qiladi va u quyidagi tarmog'ni o'z ichiga oladi:

1. Markaziy bank

2. Tijorat bank.

Markaziy bank banklarning banki sifatida bank va moliya muassasalari faolyatining barqarorligini ta'minlaydi. Birinchi navbatda, u ko'pchilik moliya institutlari, banklarning faolyati moliyaviy jihatda muammolar yuzaga kelganda, banklar omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmay qolgan holda moliyaviy sarosima bo'lishini oldini olish kerak. Bu masalani hal qilish uchun Markaziy bank, avvalo, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini ikkinchi pog'ona-tijorat banklar tizimiga nisbatan bajaradi. Markaziy bank majburiyatiga tijorat banklarning har kunlik faolyatiga aralashish kirmaydi. Markaziy bank tijorat banklarning me'yoriy boshqarilishi, ularning to'lovga qobiliyatligi va likvidligini ta'minlanishini kuzatib borishi va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish kerak. Bularning barchasi nazorat me'yorlari tizimi yordamida amalga oshirilib tijorat banklari pog'onasiga o'tkaziladi.

Markaziy bank pul siyosatini o'tkazish yo'li bilan muomaladagi pul massasi ustidan nazorat amalga oshiradi va inflyatsiya, ishsizlikning past darajasini ta'minlash va iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish kerak. Bunda markaziy bank emission muomaladan olish huquqiga ega bo'ladi. Markaziy bank ya'ni tijorat banklari o'rtasida hisob kitoblarni olib borishga imkoniyat yaratadi.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasi bu - xalq xo'jaligi va aholiga xizmat ko'rsatishdagi bosh bo'gin bo'lgan mustaqil tijorat banklarining tarmog'idir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida turli hisob - kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Bank tizimida yuzaga kelayotgan holatlar, bugungi kunda bank menejmenti va marketingini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Banklar sonini ko'payishi bu raqobatning kuchayishidir. Bu esa bank boshqaruvida yangi yangi vazifalar degani, shuning uchun bank tizimidagi menejment va marketingni

rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Bank tizimidagi samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab olish zarur.

- bank boshqaruvining iqtisodiy mohiyatini nazariy o'rganish ularni xorij tajribasi bilan solishtirish;
- banklarning yangi xizmat turlarini taklif etish, bankdagi operatsiyalarni boshqarishni yaxshilash;
- bank xodimlarini boshqarishni yaxshilash tufayli mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish.

Har bir mamlakatda tijorat banklarining soni turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Shvetsiyada davlat banki 40ga yaqin tijorat banki faoliyatini nazorat qiladi xolos, AQSh da 13000ga yaqin tijorat banklari mavjud. Shvetsariyada esa har 10000 aholiga bittadan moliya muassasasi to'g'ri keladi.

Markazlashtirilgan bank boshqaruvi asosida faoliyat ko'rsatayotgan respublika banklari tor doirada pul resurslari harakatini boshqarish, lekin uni boshqaruvchiligini nazorat qilish sobiq ittifoq davlat banki qo'lida edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimining qator kamchiliklarini ro'yobga chiqardi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi.

Bank tizimini qaytadan tashkil etish 1987 yilda boshlandi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy tuzilmsini o'zgartrish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kredit haraktdagi iqtisodiy dastaklarga aylantirish ko'zda tutilgan edi. Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichi davlat banklarning yangi tuzilmasini tashkil etish bilan bog'lanadi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: markaziy emission bank va bevosita xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi bevosita davlat banklari;
- ixtisoslashtirilgan davlat banklarni to'laligicha xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalashga o'tkazish;

- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ldigan kredit munosabatlari uslublari va shkalalarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o'zining kredit tizimidagi markaziy o'rnini saqlab qolgan holda korxona va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshiradi. Ya'ni bankning emission faoliyatini kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo'yiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi boshqa barcha banklar uchun bir xil pul kredit siyosatini olib burvchi muassasasaga aylanadi. Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar tashkil qilinib xo'jaliklar bilan banklar o'rtasidagi aloqalarni tobora yaqinlashtirildi, ixtisoslashtirilgan davlat banklari o'zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasining "Banklar tizimini isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi 1999 yildagi 19-yanvaradgi qaroriga asosan bank tizimini barqarorligini safarbar etish, iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlashga banklarning ishtirokini kengaytirish bank xizmatlari sohasida vazifalar belgilab berildi. 1991-2000 yillar mobaynida yuzaga kieltirilgan bank tizimini yanada xalqaro andozolarga yaqinlashtirish maqsadida bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilish chora tadbirlarining boshlanishi bank tizimini rivojlanishining 4-bosqichi boshlanganligini ko'rsatadi. Bu bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora tadbirlari to'g'risida"gi 2000 yil 21-martdagi farmoni va Vazirlar Mahkamasining Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2000 yil 24-martdagi qarori o'zaro qabul qilish bilan boshlandi. Bu hujjatlarga asosan quyidagilar bu bosqichning asosiy vazifalari qilib belgilandi:

- Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklari mustaqilligini oshirish;

- Bank tizimi va uning bo'g'inlari rivojlanishini rag'batlantirish;

- Bo'sh turgan mablag'larni bankga jalb qilish va omonatchilarning manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

- Banklarning investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylantirish;

- Banklarning mijozlar bilan o'zaro manfaatlilik, sheriklilik munosabatlari shakllantirish;

- Aholining moliya tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish ;

- Xorijiy banklar va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va valyuta munosabatlarini erkinlashtirish, kengaytirish kabi vazifalar belgilanadi.

Bank menejmenti boshqaruv jarayonini amalga oshirib, moliyaviy, moddiy, tashkiliy, huquqiy, ma'naviy psixologik shart-sharoitlarni yaratish, boshqaruv vazifalarini bevosita ijro etilishi bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bank menejmenti asosida, avvalambor, odamlar bilan ishlay olish mahorati yotadi, shu bois bank menejmentining muhim tarkibiy qismlaridan biri xodimlarni boshqarishdir. Sir emaski, inson resurslari sifati ularning bank oldida turgan maqsadlarini amalga oshirishga qo'shgan xissasi hamda bank faoliyatining sifatini ko'p jihatdan xodimlar bilan ishlashni samarali yo'lga qo'yilganiga bog'liq.

Ikki bosqichli bank tizimining shakllantirilishi, uning tarkibiy takomillashtirilishi, shuningdek, elektron to'lovlari tizimining yaratilishi joylarda yangi tuzilmalarning: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bosh hududiy boshqarmalari va Hisob-kassa markazlarining yaratilishiga va ularning faoliyatini yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Bu esa bank muassasalarining yangi turi bo'lib, o'ziga xos funktsiyalarga ega. Bu funktsiyalar mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarida belgilab berilgan.

Ushbu tuzilmalarning tashkil etilishi xodimlar bilan ishlashda bank tizimini yanada isloh etish hamda tijorat banklarini hududiy bo'linmalari oldiga qo'yiladigan vazifalarini amalga oshirishda mosligini ko'rsatmoqda.

1.2. Banklarni innovatsion boshqarishda personalni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari

Bank boshqaruvi, aniqrog'i innovatsion boshqaruvi asosida, avvalambor, odamlar bilan ishlay olish mahorati yotadi, shu bois banklar innovatsion boshqaruvining muhim tarkibiy qismlaridan biri xodimlarni boshqarishdir. Sir emaski, inson resurslari sifati ularning bank oldida turgan maqsadlarini amalga oshirishga qo'shgan hissasi hamda bank faoliyatining sifati ko'p jihatdan xodimlar bilan ishlashni samarali yo'lga qo'yilganiga bog'liq.

Ikki bosqichli bank tizimining shakllantirilishi, uning tarkibiy takomillashtirilishi, shuningdek, elektron to'lovlari tizimining yaratilishi joylarda yangi tuzilmalarning: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bosh hududiy boshqarmalari va Hisob-kassa markazlarining yaratilishiga va ularning faoliyatini yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Bu esa bank muassasalarining yangi turi bo'lib, o'ziga xos funktsiyalarga ega. Bu funktsiyalar mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarida belgilab berilgan.

Ushbu tuzilmalarning tashkil etilishi xodimlar bilan ishlashda bank tizimini yanada isloh etish hamda tijorat banklarini hududiy bo'linmalari oldiga qo'yiladigan vazifalarini amalga oshirishda mosligini ko'rsatmoqda. Bank uchun kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan va zamonaviy bank texnologiyalaridan foydalana oladigan, o'z ishini muntazam ravishda takomillashtirishga intiladigan mutaxassislar kerak. Bunday sharoitda yuqori ishchanlikka ega jamoani shakllantirish uchun xodimlar sonini rejalashtirish va istiqbolini belgilash, uning kasbiy darajasini oshirish va mutaxassislarni maqsadga muvofiq holda tanlash, barcha turdagi mukofotlashlarni hisobga olishning yagona tizimini yaratish lozim.

Aytish joizki, xodimlarni boshqarish mahalliy adabiyotlarimizda ancha keng baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda, chunki bank faoliyatini takomillashtirishning ushbu yo'nalishining dolzarbligi bu muammoning salbiy

oqibatlarini boshidan kechirgan xorijiy banklar tajribasida ham o'z tasdig'ini topmoqda. Xodimlarni boshqarish muammosini belgilashga, uni hal qilish usullariga turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar o'z maqolalarida ichki firma boshqaruvi – bu eng yuqori samaradorlik va foydalilikka erishish maqsadida tashkilot resurslarini boshqarish tamoyillari, usullari va vositalari yig'indisi deb ta'rif berar ekan, xodimlarning resurs sifatidagi alohida fazilatlarini ko'rsatib beradi. Umuman olganda xodimlarni bir jinsli substantsiya deb qarash yaramaydi, har bir xodim o'ziga xos qadriyatlarga va motivlarga ega. Xodimlarni boshqarish uzluksiz jarayon bo'lib, odamlarning maksimal darajada ishchanligini oshirish va tegishli yuksak yakuniy natijalarga erishish maqsadida ularni motivatsiyalashni maqsadli o'zgartirishga qaratilgandir. Xodimlar bilan ishlashning yakuniy maqsadi – tashkilot maqsadlarini xodimning manfaatlariga yuqori darajada yaqinlashtirish kerak. Shularga asosan xodimlarni boshqarishning kontseptual modelini taklif qilish mumkin.

Boshqa bir guruh olimlar xodimlar iqtisodiyotini individuallashtirish mavzusini davom ettiradi. Ularning fikricha, xodimlar iqtisodiyoti maqsadi individuallashtirishga yo'nalish olish barobarida individni faqat umumiy, jamoaviy vazifalarni hal qilishga jalb etilishi oqibatida ishga solinmay kelingan individual salohiyatini namoyon qilish natijasida tashkilot samaradorligini oshirishdan iborat. Shunga ko'ra, boshqaruvning muammosi ko'rsatilayotgan xizmatlarni xodimlarning haqiqiy talablariga qaratish yo'li bilan qo'shimcha xarajatlarsiz ular mehnatini rag'batlantirish samaradorligini oshirish bilan bog'liq. Bunday siyosat natijasida xodimlarning o'z ishidan mamnunligi va o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishga tayyorligi asosida individual ishchanlikning ortishini kutish mumkin. Xodimlarni boshqarishga bog'liq ishlab chiqarish xo'jalik muammolari ham iqtisodiy shart-sharoitlarga, ham hulq-atvor xususiyatlariga tayanishi lozim. Bank boshqaruvida xodimlarni boshqarish haqida gap ketganda shuni aytib o'tish kerakki, bu jihatdan xodimlarni bank tizimida boshqarish boshqa faoliyat turlaridan birmuncha farq qiladi, bu esa banklarning boshqa tashkiliy institutlardan farq qilishi bilan asoslanadi.

Bizning fikrimizcha, xodimlar boshqaruvi deganda uchta strategik vazifalarni amalga oshirish zarur.

1. Bankning mehnat resurslariga bo'lgan ehtyojlarini tezkor va to'liq qondirish uchun zarur ixtisoslashuvni va malaka darajasini ta'minlash.

2. Xodimlarning o'zlariga yuklangan funktsiyalarni eng yuqori darajada samarali bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

3. Tizimning bank boshqaruvini boshqa yo'nalishlari va elementlari bilan kerakli darajadagi o'zaro ta'sirini ta'minlashga qaratilgan xodimlarni boshqarishning kompleks tizimini yaratish.

Shunga ko'ra, xodimlarni boshqarish tizimi doim uchta o'zaro ta'sir qiluvchi bloklardan tashkil topadi. Bular: boshqaruv strategiyasi, boshqariluvchi kichik tizimlar, tizimning umumiy faoliyatini ta'minlovchi blok.

Bank personalni boshqaruvi strategiyasi deganda xodimlarni boshqarishning umumiy vazifalarini amalga oshirishda kontseptual yondashuvlarning yig'indisidir. Boshqariladigan kichik tizimlar deganda - kompleks boshqaruv tizimining aniq ta'riflangan muayyan vazifasini amalga oshirishga qaratilgan elementlarni tushunish lozim. Bank personalni boshqaruvini ta'minlash deganda uning tarkibini muayyan jarayonga qaratilmagan, ammo barcha operatsion kichik tizimlarning faoliyatini ta'minlovchi mustaqil elementi tushuniladi.

Bank personalni boshqarish kontseptsiyasi, xodimlarni boshqarish kichik tizimi u yoki bu bank doirasida javob berishi lozim bo'lgan talablarga mos holda ishlab chiqilishi kerak.

Bank personalni boshqarish kichik tizimi quyidagilarga qaratilgan:

- har bir ish o'rni, bo'lim, boshqarma ishining hajmini belgilash asosida kadrlar tarkibini maqbullashtirish;

- shtat lavozimlarini mehnat jarayonining murakkabligi va o'ziga xosligidan kelib chiqib funktsional majburiyatlarning maqbul to'plami bilan ta'minlash;

- malakali kadrlarni bankda belgilangan lavozimlar tarkibiga mos holda va har bir mutaxassisning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek ularni

moslashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratgan holda sifatli tanlash, ajratish va joylashtirish;

- xodimning salohiyatini va imkoniyatlarini aniqlash asosida, uning xizmatdagi o'sishini rejalashtirish asosida kadrlar tarkibidan oqilona foydalanishni tashkil qilish;

- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish;

- har bir xodimning umumiy ishga qo'shgan hissasiga mos holda mehnatga haq to'lash, mehnatni motivatsiyalashning boshqa turlarini takomillashtirish.

Ushbu kontsepsiya quyidagi tamoyillarni o'z ichiga olishi mumkin deb o'ylaymiz:

1. Har bir bo'limda xodimlar sonini maqbullashtirish.

2. Malakasi va individual imkoniyatlari bajariladigan ishga mos keladigan xodimlarni tanlash.

3. Mehnatni maksimal ravishda avtomatlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish.


4. Funktsiyalarning takrorlanishini istisno etish.

5. Ish vaqtini tejash.

6. Zarur ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish.

Me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqishda kadrlar zahirasini, rahbarlikka nomzodlarni shakllantirish, mutaxassislarni asosiy lavozimlarga tanlov asosida taklif qilish, o'qishga yuborish, mutaxassislarning kasbiy o'sishi, ular mehnatini motivatsiyalash va baholashga bog'liq masalalarni hal etishga amaliy yondashuvlarni shakllantirish kerak.

Bular xodimlar bilan ishlarni tizimlashtirishga, bo'linmalarni bank mutaxassislarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan xodimlar bilan ta'minlashga, ish o'rinlarining jihozlanganligini va mehnat madaniyatini oshirishga imkon beradi.



1-rasm. Tijorat banklari personalini innovatsion boshqarish tizimi.⁵

Tijorat bankida xodimlar bilan ishlash kontseptsiyasi uning asosiy mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar asosida qurilishi mumkin :

- xodimlarni rejalashtirish va prognozlash;
- xodimlarni tanlash va ajratish;
- xodimlarni baholash;
- xodimlarni kasbiy rivojlantirish;
- xodimlarni motivatsiyalash.

Shunday qilib, ish o'rni modelidan kelib chiqib, ish o'rnida nomzodga qo'yiladigan talablarning to'liq ro'yxati ishlab chiqiladi. Ro'yxatga quyidagi elementlar kiradi:

⁵ Ortiqov O.A., Tillayev X.S. Bank menejmenti. 2013 y. 75-b.

- hisobga olish ma'lumotlari (yoshi, jinsi va h.k., ya'ni shaxsiy varaqada, avtobiografiyada, tavsiyalarda, mehnat daftarchasida va boshqalarda aks etgan ma'lumotlar);

- malaka darajasi (ma'lumoti, mutaxassisligi, diplom olgandan keyingi qayerda o'qiganligi va malakasini oshirganligi);

- bank ishi, iqtisod, moliya, boshqaruv, psixologiya, dasturlar, xorijiy til va hokazolar bo'yicha kasbiy bilimlari;

- kasbiy ko'nikmalari (odamlar bilan ishlash, nizomlar, metodikalar, qo'llanmalar, dasturlar va rejalarni ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ish yuritish, zamonaviy dasturiy mahsulot bilan ishlash va h.k.);

-ish tajribasi (mutaxassisligi bo'yicha, moliya-kredit, bank tizimidagi ish staji, jamoat ishlaridagi ishtiroki);

- shaxsiy-psixologik fazilatlari (halollik, mehnatsevarlik, kirishimlilik, intizomlilik, aqliy salohiyati, ortiqcha ishlashga va stressga chidamliligi va h.k.);

- mehnat sharoitlari (ish xonasi, telefon, transport, kompyuter texnikasi, o'quv-metodik markaz, kutubxona);

- mehnatga haq to'lash va ijtimoiy imtiyozlar (lavozim maoshi, ustamalar, mukofotlar, oylik kompensatsiya to'lovlari, mehnat ta'tiliga, yubiley sanalariga, yaqinlarining o'limi hollarida, tabiiy ofatlarda va baxtsiz xodisalarda moddiy yordam, sug'urtalash, imtiyozli yo'llanmalar, qo'shimcha ta'til berish, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualaridan foydalanish, qo'shimcha pensiya tayinlash). Rahbar ish o'rnini tavsiflashda boshqaruv vazifalarining boshqaruv ta'siri doirasi, qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik, bajariladigan ishlarning bir xilligi, rejalashtirishning ko'lamlari, muvofiqlashtirish darajasi kabi omillari ham kiritiladi. Bu, o'z navbatida, rahbarlik lavozimiga nomzodning boshqaruv fazilatlari yig'indisi, ya'ni: istiqbollarni ko'ra bilish, rejalashtirish, rahbarlikni amalga oshirish ishtiyoqi, shaxsiy fazilatlari ichida yetakchilik xususiyatining borligi, odamlar ishini tashkil qila olishi, boshqalarning ishini taqsimlash va nazorat qilish, ishga o'rgatish kabi uning kasbiy darajasiga qo'yiladigan talablar ro'yxatini shakllantiradi.

Har bir lavozim toifasiga unga mos keladigan murakkablik darajasidagi mehnat funktsiyalarining bajarilishi belgilangan.

Amaliyotda texnologik tuzilmalarning har bir toifa mutaxassislarining mansab majburiyatlari bajariladigan ishlarning aqliy jihatdan murakkabligidan kelib chiqib shakllantiriladi va tavsiflanadi.

Bank doirasidagi boshqaruv – bu eng katta samaradorlik va foyda olish maqsadida bank resurslarini boshqarishning zamonaviy qoidalari, usullari va vositalari yig'indisidir. Bank doirasidagi boshqaruv shunday ta'riflanganda personalning resurs sifatidagi alohida tavsiflari ham ajratib ko'rsatilmog'i kerakdir.

Personalning – bu resurs ekanini anglagan holda boshqa resurslardan (moliyaviy, xom–ashyo, moddiy va boshqa resurslardan)shunisi bilan farq qiladiki, yollanma xodim, ishchi, xizmatchi undan foydalanishda asoslanish mo'ljallanayotgan shartlardan voz kechishga haqli; o'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shashi; e'tiroz bildirish; boshqa kasblarni o'rganish; ish haqi to'lash darajasi to'g'risida muzokaralar olib borish; qanday toifadagi kasblar uning uchun ijtimoiy jihatdan nomaqbul ekanini, umuman esa bir turdagi substantsiya deb qaralish mumkin emasligi to'g'risidagi masalalarni hal etish huquqlariga, o'z shaxsiy dalil va qadriyatlariga ega.

Bank sohasidagi innovatsion boshqaruv quyidagilarni o'z ichiga oladi: bosh innovatsion boshqaruv, operatsion ishlar innovatsion boshqaruvi va personal innovatsion boshqaruvi.

Bosh menejer bilan barcha menejerlar ular tarkibiy bo'linmalar boshlig'i ekani yoki boshliq emasligidan qat'iy nazar shug'ullanadilar. Ular muayyan missiyalar hamda strategiyalar shakllantirilishi, siyosiy ishlab chiqilishi va vazifalar qo'yilishi uchun, xullas rejalashtirish va tashkil etish, bankni nazorat qilish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlar uchun javobgardir.

Operatsion boshqaruv yoki ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati boshqaruvi bank umumiy strategiyasini amalga oshiruvchi maqsad hamda vazifalar qo'yilishi, tuzilma shakllantirilishini, majburiyatlar taqsimlanishini; mehnat

nizolarini tartibga solinishini; rejalarning bajarilishini, xodimlarning sifatli ishlarini rag'batlantirilishini, bo'linma doirasidagi ishlab chiqarish jarayoni muvofiqlashtirib turilishini, zarur kommunikatsiyalar va aloqalar yo'lga qo'yilishini ta'minlaydi.

Bank personalni boshqaruvi quyidagi vazifalarni hal etadi: xodimlarning butun kuch-g'ayratini bank missiyasi va strategiyasi bajarilishiga, uning maqsadlariga erishishiga qaratish: xodimlarning aqliy va jismoniy imkoniyatlaridan samarali foydalanish: korxonani kerakli xodimlar bilan ta'minlash, xodimlar imkoniyatlarini to'la ishga solish; xodimlar turmushi korporativ madaniyat talablariga javob beradigan darajada bo'lishini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish.

Bank doirasidagi boshqaruvning har uch turi bir ob'ekt – insonga taalluqlidir. Zero bank rivoji uning kundalik mehnat faoliyatiga qo'shilishi darajasiga bog'liqdir.

Personalni boshqarish – bu kishilar mumkin qadar samaraliroq ishlashiga, shu orqali yuksak pirovard natijalarga erishish maqsadida ularning qiziqishlarini aniq maqsad sari o'zgartirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Chet el tajribasida bank personalini boshqarish muammolarini hal qilishga doir ikkita asosiy yondashuv mavjud.

Biriinchi yondashuv diqqat e'tiborini shunga qaratdiki, “inson resurslarini boshqarish” mazkur muammoni hal qilishning strategik jihatlarini, shu jumaldan, ijtimoiy rivojlantirish masalalarini qamrab oladi.

“Personalni boshqarish” esa, ko'proq kadrlar bilan operativ ish olib borishga taalluqlidir. Ikkinchi yondashuv shunga asoslanadiki, “odam resurslarini boshqarish” avvalo mehnat va bandlik sohasidagi munosabatlarni davlat yo'li bilan tartibga solish masalalariga, “personalni boshqarish” esa, bank darajasidagi mehnat munosabatlariga qaratilgan.

Personalni innovatsion boshqarish uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U xodimlarning mehnat qilish sabablarini, undan yuqori darajada foyda

olishni va korxonalar faoliyatida pirovard yuksak natijalarni qo'lga kiritilganligini bildiradi.

Amaliy nuqtai nazardan personal bankning eng muhim resursi bo'lib, uning imkoniyatlarini samarali amalga oshirish xodimlarning muayyan guruhi yoki ayrim xodim tomonidan hal etiladigan aniq ishlab chiqarish vazifalarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda ijtimoiy yechimlarni talab qiladi.

Yangi kontsepsiya avvalo xodimlar faoliyatining iqtisodiy mezonlarini hisobga olgan holda, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish, boshqariladigan xulq-atvordan maqsadga muvofiq foydalanish, alohida shaxsning ham, turli professional va ijtimoiy guruhlarning ham imkoniyat va qobiliyatlarini mumkin qadar yaxshiroq ochish uchun zarur investitsiyalarda aks ettirish lozim. Uni qurishda personalni rivojlantirishga qilinadigan pul xarajatlari bilan foyda ko'rinishidagi amaliy natijalar nisbati hisobga olinishi darkor. Bunday yondashuv biznesning o'zoq muddatli strategiyasiga asoslanadi.

Bir tomondan, u o'zi boshchilik qilayotgan bo'linma xodimlariga nisbatan liniya menejeri hisoblanadi, ikkinchi tomondan bankning boshqa tuzilmalari bilan funktsional munosabatlarda bo'ladi. Funktsional boshqaruv esa faqat maslahat va tavsiyalar berishni ko'zda tutadi. Personal bilan ishlash xizmatining rahbari boshqa bo'linmalarda o'zgartirishlarni bevosita o'tkaza olmaydi, lekin shunday o'zgartirish yunalishi to'g'risida tavsiyalar berish huquqiga ega.

Bank personalini innovatsion boshqaruvining vazifasi bankdagi hamma xodimlarni yangi g'oya, yangi takliflar va xizmatlar atrofida o'zaro hamkorlik qilishni ta'minlashdan iboratdir. Shuni hisobga olish kerakki, xodimlar faoliyatini boshqarish ustuvorligi masalasi barcha xodimlar uchun ancha nozik masala hisoblanadi.

Professional bilim va ko'nikmalar (demak, mos keluvchi investitsiyalar ham) ikki turda: umumiy va o'ziga xos(spetsifik) bo'ladi. Umumiy inson kapitali turli banklarda ishlagan holda mehnat bozorida talabga ega bo'lishga imkon beruvchi keng doiradagi bilim va ko'nikmalarga asosan shakllanadi. Shu sababli, avvalo xodimning o'zi bunday investitsiyalardan manfaaddor bo'ladi.

Maxsus inson kapitali u yoki bu firmaning faoliyat xususiyatlarini (xizmatlar, texnologiyalar, tashkiliy tuzilmalar) aks ettiradi. Shuning uchun maxsus tayyorlov asosan firmalarning o'zi tomonidan moliyalashtiriladi.

Xullas, yuqorida aytilgan takliflarning amaliy ahamiyati moliya boshqaruvining mehnatga daxldor huquqiy jihatlarini aniqlash, uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish, moliya boshqaruvi sohasida yangi me'yoriy xujjatlarni shakllantirishga zamin hozirlashga intilishdan iboratdir.

Jahon bank tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, MDX mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotir. Xo'sh, gap qaysi o'zgarishlar to'g'risida bormoqda.

Birinchidan, bu o'zgarishlar to'lovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi bilan bog'liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy harajatlar talab qiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa harajatlar o'sishini qoplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning qo'shilib ketishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonning bank tizimi unga kam quvvatli talay banklar kirganligi sababli, yaqin vaqt ichida bu ta'moyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu hodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bo'lishi ham yordam beradi.

Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashkari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, axoliga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli xildagi tijorat tuzilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

To'rtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli iste'molchilari ta'siri ortadi. Iste'molchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisob-kitoblarning qulayligi, mijozlarning ehtiyojlariga diqqat e'tibor qaratilishiga nisbatan banklarga tobora qattiq talablar qo'ya boshlaydi.

1.3. Bank faoliyatini innovatsion boshqarishda yangi texnologiyalardan samarali foydalanish

Mamlakatimiz bank tizimi innovatsion shakllanishining ilk davridanoq kompyuterlashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etishga jiddiy e'tibor qaratdi. Ilg'or axborot texnologiyalarini faol qo'llash tufayli xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro to'lovlar real vaqt rejimida amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

Axborot texnologiyalari yutuqlarini bank tizimi faoliyatiga dadillik bilan tadbiq etish, ular asosida mukammal dasturlar yaratish va bank xizmatlarini yo'lga qo'yishning mustahkam platformasi yaratildi. Ko'p o'tmay "Bank-Mijoz" dasturiy ta'minoti amaliyotga kiritildi. Bu esa milliy to'lov tizimini yangi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mijozlarga o'z ish joylaridan turib, kompyuter va elektron aloqa tizimi orqali ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

Hozirgi paytda respublikamiz bo'yicha qariyb 14,5 ming tadbirkorlik sub'ekti "Bank-Mijoz" dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanib kelmoqda.⁶

Bozor munosabatlari kengaya borgan sari tijorat banklari ham chakana operatsiyalarni rivojlantirish, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini ko'paytirish orqali o'z faoliyatini diversifikatsiya qila bordilar. Chunki banklar tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalari yangi bank mahsulotlari paydo bo'lishining asosiy omili, binobarin, bank xizmatlari bozori rivojlanishiga sharoit yaratishi tushunib etilgan edi.

Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishning bir turi, bu bankomat va terminallardir. Foydalanishi sodda bo'lgan bankomat bugungi kunda mijoz va kassir o'rtasidagi an'anaviy muomalaga chek qo'yib, o'ziga xos minibank-ofis vazifasini o'tamoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi paytda bankomatlardan nafaqat naqd pul echib olish, balki ular orqali tovar va xizmatlar bo'yicha turli to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Shuni qayd etish o'rinliki, mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida bankomatlar yagona tarmoqqa

⁶ www.cbu.uz rasmiy sayti ma'lumotlari.

ulangan bo'lib, mijozlar o'z bankidan boshqa banklar bankomatidan ham foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda respublikamizda muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 7 mln. 909 ming donani tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2006 yilga nisbatan 3,8 baravar ko'pdir. Plastik kartochkalar soni ko'payishiga mos ravishda terminallar soni ham oshib bormoqda. Bundan 5 yil oldin aholi gavjum bo'lgan joylar va savdo do'konlari, xizmat ko'rsatish ob'ektlariga o'rnatilgan terminallar soni 11487 tani tashkil etgan bo'lsa, shu yil boshiga kelib ular soni 85761 tani tashkil etdi.⁷

Plastik kartochkalar yordamida amalga oshirilayotgan operatsiyalar turi va soni ham sezilarli darajada o'sib bormoqda. Birgina joriy yilning birinchi choragida plastik kartochkalar vositasida 2 trln. so'mdan oshiq har xil naqd pulsiz to'lovlar o'tkazildi.

Naqd pulsiz to'lovlar hajmining o'sish dinamikasi birinchi navbatda, tovar va xizmatlar uchun to'lovlarning bankomatlar orqali amalga oshirilishi, ular orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini va infrastrukturasining kengayishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu bilan birga banklar tomonidan plastik kartochkalar imkoniyatlari oshirib borilmoqda. Banklar plastik kartochka jozibadorligini ta'minlash maqsadida belgilangan limit doirasida ularning egalariga kredit ajratmoqda, depozitlar taklif etmoqda, ular orqali amalga oshiriladigan to'lov turlarini kengaytirmoqda.

To'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirishning innovatsion shakllariga bo'lgan ehtiyoj mutassil ortib bormoqda. Tadbirkorlik sub'ektlari tejamli, kam vaqt va harakat sarflagan, yuqori axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, ma'lumot olishga ko'proq ishtiyoq bildirmoqda. Mana shu ehtiyojni inobatga olib, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish ko'lamini kengaytirishga, bunda global Internet tarmog'i imkoniyatlaridan samarali foydalanish choralarini ko'rib bormoqdalar. Aytib

⁷ www.cbu.uz rasmiy sayti ma'lumotlari.

o'tish o'rinliki, ayni yo'nalish jahon bank tizimi va uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan milliy bank tizimining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Banklar Internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida yangi chakana xizmatlarni taqdim etib, mijozlarga qator qulayliklar yaratmoqda. Hozirgi paytda mamlakatimizning barcha banklari Internet-banking (e-banking yoki Internet-banking) dasturi imkoniyatlarini to'liq safarbar etish choralari ko'rmoqdalar.

Ayni paytda barcha tijorat banklari Internet tarmog'ida o'zlarining web-saytlarini ochib, ularda bank faoliyati, yangi xizmat turlari va shartlari va mijozlar manfaatiga tegishli ma'lumotlar bilan muntazam boyitib borilmoqda.

Aholi o'rtasida mobil telefonlardan foydalanishning kengayib borishi banklar tomonidan mobil-banking (wap-banking) va sms-banking xizmatlari yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Hozirgi paytda 10 mingdan oshiq mijozlar ayni xizmat turlaridan foydalanmoqda. Yil oxirigacha zamonaviy texnologiyalar asosida bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonini 100 mingtadan oshirish ko'zda tutilmoqda.

Matbuot anjumani chog'ida jurnalistlarga axborot texnologiyalarining innovatsion yutuqlariga asoslangan yangi bank xizmatlarining amaliyotga qo'llanilishi namoyish etildi.

Tijorat banki (xususiylashtirilgan yoki yaqinda tashkil etilgan) o'zining asosiy vazifalarini rivojlanayotgan muhitning beqarorligini hisobga olgan holda belgilashi kerak. Bunda innovatsion faoliyatning ustivor yo'nalishlar qilib, quyidagilar olinadi:

1. Bankning mijozlar bilan mavjud bo'lgan aloqalari va bu mijozlarga xizmat ko'rsatish tajribasi.
2. Bevosita geografik muhitning iqtisodiy tuzilmasi.
3. Mavjud bank raqobati (raqobatli muhitda xizmat ko'rsatilgan sohalar va tarmoqlarni belgilash).
4. Bank xususiy sarmoyasi, depozitlarining hajmi va tuzilishi.

5. Iqtisodiyotning turli sohalrida yuzaga kelishi muhim bo'lgan daromadlilik.

6. Bank xodimlarining boshqaruvchilik va texnik omilkorligi.

Bank geografik bozorlari ob'ektlarini belgilovchi omillar:

1. Bevosita tijorat, moliya va sanoat muxitini mikyosi va tuzilishi.

2. Mintakaviy va milliy joylashishidan kelib chiqib boshqarish maqsadlari (bozoni geografik jihatdan bo'lib olish maqsadlari).

3. Geografik printsiplarga rioya qilishga ehtiyoj va xohish hamda ehtimoldagi mijozlarni ko'paytirishga intilish.

4. Xodimlarning omilkorligi bilan bog'liq cheklovlar.

Har qanday menejmentning tadbirkorlik xususiyati va mulkchilik turidan qat'iy nazar eng muhim ikki vazifasi mavjud:

a) mukammal va samarador tashkiliy tuzilmani tashkil etish va undan foydalanish;


b) qaror qabul qilish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki nazorat tizimini yaratish.

Yangi innovatsion iqtisodiy va tadbirkorlik muhitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun menejment mehnat resurslarini boshqarish bo'yicha departament tashkil etishga munosib e'tibor berishi zarur.

Shu ma'noda o'rta bo'g'in xodimlarining texnik ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha majburiy tarzda muntazam kurslarni, menejmentning o'rta va yuqori darajasi uchun seminarlar va konferentsiyalarni o'z ichiga oluvchi dasturlarni rejalashtirish bankning samarali faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Yirik banklarda bu departamentning ahamiyatini hisobga olgan holda uning menejeri bank boshqaruvchilari kengashining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi.

Banklarning innovatsion faoliyatidagi maqsadlarni belgilash, ularni amalga oshirishning borishini doimiy baholash menejmentning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Rahbarlar bank ishining tashkil etish holati haqida yaxshi xabardor

bo'lganida tavakkalchilik darajasi uning barcha shakllarida eng past darajaga etadi.



2-rasm. Bank innovatsion faoliyatining asosiy elementlari⁸

Har qanday tadbirkorlikda bo'lgani kabi tijorat banklari operatsiyalarining uzoq muddatli smaradorligi va foydaliligi kelgusi faoliyatni rasmiy rejalashtirishga doim va davomiy e'tibor berishni talab etadi. Belgilangan rejalarni vaqti vaqti bilan muntazam sharxlash hamda o'zgartirish asosiy elementlardan hisoblandi.

Bank rahbariyati yuqorida aytilganlarga qo'shimcha sifatida foydalilikni oshirishni hamda to'lov balansini yaxshilashni, sarmoya va mijozlarni tanlash mosligini aniq maqsad qilib olishi zarur.

Bu maqsadlar tavakkalchilikni ehtimol moyilligini hisobga olishi lozim.

⁸ Astanov X.Z, Raximov A.A. "Bank menejmenti" T.: TDIU, 2013 yil, 117-b.

II BOB. «IPOTEKA-BANK» AKSIYADORLIK TIJORAT IPOTEKA BANKINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. “Ipoteka bank” ATIB ning tashkil topishi tarixi hamda missiyasi

«Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi «Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-10-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan.

Ipoteka-bank — keng xizmat ko'rsatish tarmog'iga ega, turli xil bank xizmatlarini ko'rsatuvchi yirik, universal moliyaviy muassasa. Bank «Moody's Investors Service» hamda «Standard & Poor's» xalqaro reyting agentliklarining «Barqaror» reytinglariga ega.

Ipoteka-bank ipoteka kreditlarini berish va uy-joy qurilishini moliyalash bo'yicha tajriba to'plagan yetakchi moliya muassasasi.

Bankning respublika bo'yicha 37 ta filiallari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatilmoqda.

Ipoteka-bank korporativ obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarini bajardi.

2015 yil 3 aprel kuni korporativ obligatsiyalarning birinchi chiqariluvini muddatining tugashi munosabati bilan, bank Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida 2015 yil 2 aprel holatiga shakllantirilgan obligatsiyalar egalari reestriga muvofiq, obligatsiyalar bo'yicha foizlarni to'ladi va asosiy qarzni qaytardi.

Obligatsiyalarning butun muomala muddati uchun, ularning shartlariga asosan, 2,99 mlrd. so'm miqdordagi foiz to'lovlari hisoblandi va o'z muddatlarida to'lab berildi.

Eslatib o'tamizki, umumiy chiqarilish hajmi 5 mlrd. so'mlik Ipoteka-bank korporativ obligatsiyalarining birinchi chiqariluvini Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazida 2010 yil 19 martda R0545-son bilan ro'yxatga olingan edi.

Korporativ obligatsiyalarning birinchi chiqariluvini bank tomonidan quyidagi shartlarda emissiya qilingan:

- qimmatli qog'ozlarning turi – egasining nomi yozilgan obligatsiyalar;
- qimmatli qog'ozlar tipi – foizli korporativ obligatsiyalar;
- chiqarilish shakli – hujjatsiz;
- nominal qiymati – 10 000 000 (o'n million) so'm;
- qimmatli qog'ozlar soni – 500 (besh yuz) dona;
- qimmatli qog'ozlarning muomala muddati – 1820 kun (5 yil), har biri 182 kunga teng bo'lgan 10 ta oraliq muddatdan iborat;
- obligatsiyalar daromadliligi – tegishli oraliq muddatning boshida amalda bo'lgan O'zR Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi darajasida.

«Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka bankining mamlakat iqtisodiyotidagi salohiyatini oshirish borasida strategik faoliyati:

- iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni davom ettirish;
- investitsion xarakterga ega bo'lgan kreditlari hajmini yanada oshirib borish;
- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi korxonalarni, kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha to'plangan tajribani yanada mustahkamlash, yosh oilalar, qishloq xududlarida servis sohasini rivojlantirishni kreditlashga alohida e'tibor qaratish;

Bankning universal faoliyatini rivojlantirib borish, chakana xizmatlar ko'lamini oshirish.

- Ipoteka-bank mijozlariga bank xizmatlarining to'liq spektrini taqdim etish, yangi bank xizmatlarini joriy etish;
- korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan birgalikda chakana bank xizmatlarini ham rivojlantirib borish;
- chakana bank xizmatlariga axborot texnologiyalarni joriy qilib borish;

- aholidan kommunal to'lovlarni yig'ish bo'yicha erishilgan natijalarni mustahkamlash, kommunal tashkilotlar bilan elektron axborotlarni bevosita almashuvini tashkil qilish;

Uy-joy qurilishi sohasidagi faoliyati.

- aholi uchun shaharlarda ko'p qavatli uy-joylar qurilishini moliyalashtirish hajmlarini oshirish;

- respublikamiz aholisiga jalb etiladigan mablag'lar evaziga uzoq muddatli ipoteka kreditlari berishni rivojlantirish;

Xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

- chet el banklari va xalqaro moliya institutlari bilan yangi aloqalar bog'lash, mavjudlari bilan hamkorlikni mustahkamlash va ularni loyihalarni moliyalashtirishga keng jalb etish, chet el banklari va milliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida vositachilik qilish;

- uzoq muddatli ipoteka kreditlarini berishda chet el kredit liniyalarini jalb etish;

- jahonda zamonaviy bank amaliyotida qo'llaniladigan bank xizmatlarini o'rganib borish va bank faoliyatiga moslashtirgan holda joriy etish;

Kadrlar siyosatining ustuvorliklari.

- xodimlarni doimo malakasini oshirib borish, chet tili va zamonaviy dasturiy ta'minotni o'rgatib borish;

- mehnat staji katta tajribali xodimlar, rahbarlar va yosh mutahassislar o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish orqali, Ipoteka-bank tizimida to'plangan tajribalarning keyingi avlod xodimlarida ham saqlanib va rivojlanib borishini ta'minlash;

- kadrlarga bo'lgan talabni oldindan o'rgangan holda oliy o'quv yurtlaridan muvaffaqiyatli bitiruvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish va birinchi navbatda ular bilan filiallarni ta'minlash;

«Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki missiyasi — o'z aksiyadorlari va bank mijozlari uchun eng yuqori darajadagi iqtisodiy qadriyatlarni yaratishdan iborat. Mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori sifati

va tanlangan bozorlardagi yetakchilik, kelajakdagi bank muvaffaqiyati uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Bankning korporativ qadriyatlari — jamoaviy ruh, yangicha fikrlash, ijobiy munosabat, ajoyib sifat — bank missiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Mijozlarga keng ko'lamdagi bank xizmatlarini taqdim etgan holda, bank mamlakat iqtisodini ko'tarish va rivojlantirish uchun asoslar va sharoitlarni yaratishga ko'maklashishga intiladi.

O'z mijozlariga xizmatlarni taqdim etishda Ipoteka-Bank professionalizmning yuqori standartlariga muvofiq bo'lish, yangiliklarni qo'llash, yangi g'oyalarga ochiqlik, fikrlardan foydalanish hamda qat'iy va izchil faoliyatni amalga oshirishga sodiqdir.

Bankning mijozlari bilan o'zaro munosabatlari uzoq muddatli va mustahkam bo'lishi uchun Ipoteka-Bank bundan keyin ham sifatli xizmatlar ko'rsatishni davom ettirish niyatida.

“Ipoteka-bank” aksiyadorlik tijorat ipoteka banki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi “Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-10-sonli qaroriga binoan, “O'zuyjoyjamg'armabank” va “Zaminbank”lari negizida tashkil topgan. Ushbu qarorda bank oldiga uzoq muddatli ipoteka krediti berish tizimini joriy etish, uy-joy quruvchi tashkilotlarga kredit ajratish hamda ushbu maqsad uchun mahalliy va xorijiy investitsiya mablag'larini jalb qilish, bankning respublika bo'yicha filiallar tarmog'ini rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy, tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarga kredit ajratish kabi ustuvor vazifalar qo'yilgan.

Bank ushbu vazifalarni ustuvor yo'nalish sifatida o'zining biznes-rejasi, uzoq muddatli strategiyasi va bankni rivojlantirish kontseptsiyasida o'z aksini topgan.

Bugungi kunda bankning 10 yillik faoliyati davomida:

- aholiga foydalanishga topshirilgan uylar soni 407 tani, kvartiralar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etdi, kvartiralarining umumiy maydoni esa 1 mln. kv.m.dan oshdi;

- uy-joy qurilishi uchun uzoq muddatli ipoteka krediti berish tizimi joriy etilib, 10 yil ichida jami 436,8 mlrd. so‘m ipoteka kreditlari ajratildi, jumladan, yosh oilalarga berilgan ipoteka kreditlari hajmi 197,6 mlrd.so‘m, qishloq joylarda ajratilgan ipoteka kreditlari miqdori 141,3 mlrd.so‘mni;

- uy-joy qurilishi uchun o‘zlashtirilgan kapital qo‘yilmalar miqdori 302,5 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, bank mablag‘i hisobiga ko‘p qavatli uy-joylarni qurish hamda ushbu uylarni aholiga kreditga berish tizimi ilk bor bizning bankda yaratilib, buning natijasida uy-joy bozorida xalq tili bilan aytganda, “bank qurgan uylar” iborasi paydo bo‘lgan. O‘zingizga ma’lum, bugungi kunda ham ushbu uylarga talab yuqori bo‘lib qolmoqda. Ipoteka-bank tashkil etilgandan so‘ng, mazkur tizimni Prezidentimiz qarorlarida belgilab berilgan vazifalar asosida yanada kengaytirishga va rivojlantirishga muvaffaq bo‘lindi.

Shuningdek, bank nafaqat ko‘p qavatli uy-joylar qurilishini moliyalashtirishda, balki qishloq joylarda namunaviy uy-joylarni qurilishini moliyalashtirishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Masalan, 2013 yilda 620 ta xonadon va 2014 yilda 1000 ta xonadon qurilishi moliyalashtirildi. Joriy yilda bu uylar sonini 2180 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Ipoteka-bank zamonaviy, tejamli, bozorda talab yuqori bo‘lgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kredit bilan ta’minlab kelmoqda. Oxirgi 3 yilning o‘zida bu yo‘nalishga bank tomonidan jami 139,4 mlrd. so‘mlik kredit hisobiga 382 ta loyiha moliyalashtirildi. Bugungi kunda bank mijozlari tomonidan plastik quvurlar, lak-bo‘yoq, mix, g‘isht, shifer, mayolika (mayda kafel) kabi bozorda talab yuqori bo‘lgan qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqda.

Ipoteka-bank tomonidan yuqoridagi qarorda keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bilan bir qatorda, iqtisodiy islohotlarga yaqindan ko'maklashish, kichik biznesni kreditlash, aholiga chakana bank xizmatlari ko'rsatish orqali bankning universalligini oshirishga ham alohida e'tibor qaratildi.

Bank tomonidan yirik korxona hamda kichik biznes sub'ektlarining investitsion loyihalarini, shuningdek, ipoteka krediti berishni moliyalashtirish uchun xalqaro va mahalliy moliya institutlarining investitsiya, grantlarini jalb etishda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bularning natijasi sifatida Germaniya KfV (KfW) bankining 5 mln. yevrolik, Islom taraqqiyot bankining 2,5 mln. AQSh dollarilik, Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasining 10 mln. AQSh dollarilik, Germaniya "Kommertsbanki"ning 28 mln. yevrolik, Germaniya "Landesbanki"ning 25 mln. yevrolik kredit liniyalarini sanab o'tish mumkin.

Hozirda Koreya Respublikasi "Eksimbanki"ning 10 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyasini jalb etish borasida muzokaralar olib borilmoqda.

Respublika mintaqalarida bankning ixtisoslashtirilgan xizmatlaridan aholining keng foydalanishini ta'minlaydigan filiallar tarmog'i rivojlantirilmoqda. Xususan, shu qisqa vaqt ichida Farg'ona qiloyatida Qo'qon filiali ishga tushirildi. Joriy yilda Toshkent viloyatida Zangiota filiali ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Bankning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha so'z yuritilsa, 10 yil ichida bankning sof aktivlari 15 barobar o'sib, 3,3 trln. so'mni, jumladan, kreditlar qoldig'i 20 barobar o'sib, 2,4 trln. so'mni, bank kapitali 9 barobar o'sib, 287,3 mlrd. so'mni, aholi omonatlari 20 barobar o'sib, 473 mlrd. so'mni, yuridik shaxslar depozitlari 12 barobar o'sib, 1,3 trln. so'mni tashkil etdi. Tarqatilgan plastik kartalar soni 50 barobar o'sib, 1,234 mln. donadan oshdi.

Bank o'z strategiyasiga tayangan holda erishayotgan ijobiy ishlari hamda yutuqlarini uning faoliyatiga baho berayotgan reyting kompaniyalari xulosalarida ham ko'rish mumkin. Ushbu hulosalarni Moody's va Standard & Poor's xalqaro reyting kompaniyalari tasdiqlab bankka istiqboli "Barqaror"

reytingini berganlar. Rossiyaning “RIA Reyting” agentligi tomonidan e’lon qilingan “MDH mamlakatlarning 200 ta eng yirik tijorat banklari ro‘yxati”da Ipoteka-bank ham o‘rin olib, ro‘yxatga kirgan yurtimiz banklari ichida 4-o‘rinni egalladi.

Bankning tashkilotlardagi a'zolari:

- O‘zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi;
- Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash Fondi;
- O‘zbekiston valyuta birjasi;
- «Toshkent» fond birjasi;
- Kredit axborotlari milliy instituti (KAMI);
- Bank depozitlari milliy axborot ba’zasi (BDMAB);
- UZKART milliy to‘lov tizimi, VISA va SWIFT xalqaro to‘lov tizimi.

2.2. “Ipoteka-bank” ATIBning tashkiliy strukturasi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili

Bank siyosatining tahlili natijasini aniqroq chiqarish va uni olib borish bank marketingiga, chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun esa avvalo tashkilotning, aniqrog‘i bankning tashkiliy strukturasi to‘g‘ri va optimal tuzish talab etiladi. Bu masala ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zining birlamchi ko‘rsatkichlaridan ekanligini namoyon qildi. Bankning tashkiliy strukturasi bu amalga oshirilayotgan jarayonlarni to‘la hisobga olgan holda bank va xodimlar faoliyatini bajarish va tashkil etish tizimidir. Bank marketingi esa shu ma’lum bir regionda va regiondan tashqarida bank xizmatlariga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganish, bank xizmatlariga bo‘lgan talabni boshqarish va qondirish, turli banklar tomonidan amalga oshirilayotgan bir turdagi operatsiyalar harajatini taqqoslash, reklamani amalga oshirish tizimidir.

Bank marketingi birinchi navbatda bankning potentsial mijozlarini qidirib topishini bildiradi. Bank mijozni hamda o‘zining iqtisodiy potentsialini birgalikda qo‘shib o‘rganadi. Bank xizmatini yangi turlariga bo‘lgan talabni urganish hozirgi zamon banklarining eng dolzarb masalasidir. Oxirgi yillarda

bank muamolasiga kiritilgan; Faktoring, lizing, ishonch (trast), vositachilik xizmatlari va ularga bo'lgan talabni o'rganib chiqish shular jumlasiga kiradi. Tijorat banklarinig maslaxat xizmati, qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalari ham bundan mustasno emasdir.

Bankning o'z marketing xizmatini olib borishi bir necha usullariga ega. Bularning eng birinchisi hamda oddiysi mijozlar bilan olib boriladigan bevosita olib boradigan muloqatidir. Mijozni ham bank ishchisini moddiy tomonidan rag'batlantirilishi bu vazifani xal qilishning asosiy mezonlaridan biridir.

“Ipoteka-bank” ATIBning tashkiliy strukturasi ham bank sohasida faoliyat olib borishda optimal tuzilmalardan biri hisblanadi desak hato bo'lmaydi. Quyidagi chizmada biz “Ipoteka-bank” ATIBning tashkiliy strukturasi ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan moliya-bank tizimidagi islohotlar natijasida bugun yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan bank muassasalari katta-kichik sanoat korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari, dehqon hamda fermer xo'jaliklarining ishonchli hamkoriga aylandi. Negaki, yalpi ichki mahsulot hajmi, aholi real ish haqi va daromadlarining o'sishida, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorida o'z xaridoriga ega bo'lishida, ijtimoiy ob'ektlar hamda turar-joy binolari barpo etishdek keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuqlarda aynan bank muassasalarining moliyaviy ko'magi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilganda, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan 2014 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholining turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Ayni paytda barqaror va ishonchli faoliyat yuritib kelayotgan Ipoteka-banki ham iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, uning yetakchi tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish hamda texnik va texnologik jihatdan

yangilash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish hamda aholining ish bilan bandligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarda faol ishtirok etib kelayapti.

2015 yil 1 yanvar holatiga Ipoteka-bankning ustav kapitali 181,5 mlrd. so'mga, umumiy kapitali 287,3 mlrd. so'mga yetdi va bu bankning investitsiyaviy faolligini yanada oshirishga zamin yaratdi. Bankning kredit portfeli yil boshiga nisbatan 593,3 mlrd. so'mga yoki 30,8 foizga o'sdi va 2015 yil 1 yanvar holatiga 2 521,2 trln. so'mni tashkil etdi.

Bankka mijozlarning ishonchi oshib borayotganligini birgina raqam izohlaydi. Bankning depozit bazasi 1790,1 trln. so'mga yetib, 2014 yil boshiga nisbatan 4,2 mlrd. so'mga o'sdi. Depozitlar tarkibidagi aholining omonatlari esa 109,6 mlrd. so'mga yoki 30,1 foizga o'sdi va 473,3 mlrd. so'mga yetdi.

Ipoteka-bank tomonidan korporativ boshqaruvni takomillashtirish, kapitallashuv darajasini oshirish, resurslar bazasini mustahkamlash, aktivlar sifatini yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlarning bahosi sifatida Ipoteka-bank 2 ta xalqaro tan olingan reyting agentliklarining istiqboli "Barqaror" reytinglariga ega bo'lib kelmoqda. Jumladan, 2014 yil may oyida "Standard & Poor's" xalqaro reyting agentligi Ipoteka-bankning "B+" reytingini hamda 2014 yil dekabr oyida "Moody's Investors Service" xalqaro reyting agentligi "B2" reytingini tasdiqladilar. Bularning asosiy sabablaridan biri deb, bank mutaxassislari to'g'ri tanlangan hamda tuzilgan tashkiliy tuzilmani keltirmoqdalar.

Bularni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab olish zarur.

- bank boshqaruvining iqtisodiy mohiyatini nazariy o'rganish ularni xorij tajribasi bilan solishtirish;

- banklarning yangi xizmat turlarini taklif etish, bankdagi operatsiyalarni boshqarishni yaxshilash va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish.

"Ipoteka bank" ATIB o'z faoliyatida hamkorlik munosabatlarini ham yaxshi yo'lga qo'ygan bo'lib quyida biz ba'zi ma'lumotlarni chizmalar orqali keltirib o'tamiz.

1-jadval.**Bank korrespondentlar⁹**

Bank	Valyuta	Hisobraqam	S.W.I.F.T
JP Morgan Chase, Nyu York, AQSH	AQSH Dollari (USD)	0011017803	CHAS US 33
The Bank of Tokyo-Mitsubishi UFJ, Tokio, Yaponiya	AQSH Dollari (USD)	653-0457205	BOTK JP JT
UniCredit AG, Myunxen, Germaniya	EVRO (EUR)	69107257	HYVE DE MM
Raiffeisenbank International AG, Vena, Avstriya	EVRO (EUR)	1-55.082.895/EUR	RZBA AT WW
Commerzbank AG, Frankfurt, Germaniya	EVRO (EUR)	400886787100 EUR	COBA DE FF
Landesbank AG, Berlin, Germaniya	EVRO (EUR)	9805760010	BELA DE BE
Aziya Invest Bank, Moskva, Rossiya	Rossiya rubli (RUB)	30111810808000000064	ASIJ RU MM

2-jadval.**Tashkilotlar bilan hamkorlik¹⁰****Mahalliy tashkilotlar**

Tashkilot nomi	Hamkorlik maqsadi
O'zR TIF Milliy banki	Vakillik aloqalari
Asakabank	Vakillik aloqalari
O'zsanoatqurilishbank	Vakillik aloqalari
«O'zbekenergo» DAK	Billing tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish
«Sharq Telekom» MChJ QK	Billing tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish
«Unitel» MChJ (Beeline)	Billing tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish
«Uzdigital TV» MChJ	Billing tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish
«Rubicon Wireless Communication» MChJ (Perfectum Mobile)	Billing tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish

⁹ «Ipoteka bank» ATIB ma'lumotlari.¹⁰ «Ipoteka bank» ATIB ma'lumotlari.

Bank tizimida yuzaga kelayotgan holatlar, bugungi kunda bank boshqaruvi va marketingini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Banklar sonini ko'payishi bu raqobatning kuchayishidir. Bu esa bank boshqaruvida yangi yangi vazifalar degani, shuning uchun bank tizimidagi menejment va marketingni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

3-jadval.

Xorijiy tashkilotlar¹¹

Tashkilot nomi	Hamkorlik maqsadi
Xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish Islom korporatsiyasi liniyasi (Saudiya Arabistoni)	Tadbirkorlik loyihalariga xorijiy valyutada kredit ajratish
Landesbank Berlin AG (Germaniya)	Tadbirkorlik loyihalariga xorijiy valyutada kredit ajratish
Eksimbank (Xitoy Xalq Respublikasi)	Uy-joy fondiga suv va issiqlik sarfini hisobga olish jihozlarini «kaliti bilan» o'rnatish investitsiya loyihasini amalga oshirish
«Vestern Yunion» MChJ (Sharq sho'bası)	Xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish
Zolotaya korona (Rossiya)	Xalqaro pul o'tkazmalarni amalga oshirish
«Moneygram» to'lov tizimi (AQSh)	Xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish
Yunistrim bank (Rossiya)	Xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish
JP Morgan Chase (AQSh)	Vakillik aloqalari
Commerzbank AG (Germaniya)	Vakillik aloqalari
Landesbank Berlin AG (Germaniya)	Vakillik aloqalari
Unicredit Bank AG (Germaniya)	Vakillik aloqalari
Raiffeisen Bank International (Avstriya)	Vakillik aloqalari
Aziya Invest Bank (Rossiya)	Vakillik aloqalari
The Bank of Tokyo-Mitsubishi	Vakillik aloqalari


¹¹ «Ipoteka bank» ATIB ma'lumotlari.

Bugungi kunda bank Toshkent shahri va viloyatlardagi 37 ta filiali orqali yuridik va jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengligi bilan Ipoteka-bank O'zbekiston banklari orasida oldingi o'rinlarda turadi. Bank o'z xizmatlarini ko'rsatish orqali, aholi uzog'ini yaqin va og'irini yengil qilmoqda. Bozordagi mavqeni mustahkamlashda filiallarning barqaror faoliyati yuritishi muhim omildir. Shu bois Ipoteka-bank xizmat ko'rsatish shoxobchalarining oqilona faoliyat yuritishini nazorat qilib boradi.

2014 yilda Ipoteka-bank o'z filiallarida modernizatsiyalash ishlarini amalga oshirib, mijozlarga yangi bank mahsulotlarini taqdim etish orqali xizmatlar sifatini yaxshilashga erishdi. 2015 yil 1 yanvar holatiga bankning 510 dan ortiq jamg'arma kassalari faoliyat yuritmoqda.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida mijozlarga tezkor xizmatlar ko'rsatish va kichik hududlarda ham bank xizmatlarini yo'lga qo'yishda minibanklar muhim ahamiyatga ega. Zero, bu turli sohalarda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning faoliyatini jonlantirish, nafaqat yirik shaharlarda, balki mamlakatimizning barcha hududlarida teng sharoitlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholining bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda qo'l keladi. Minibanklar o'zining ixchamligi bois bankning moliya-kredit xizmatlari bozorining turli segmentlaridagi raqobat mavqeini mustahkamlash hamda mijozlarning taklif va istaklarini hisobga olgan holda tezkorlik bilan ish tutish imkonini bermoqda.

Shunga ko'ra, ayni paytda Ipoteka-bankning 116 ta minibanki tomonidan mijozlarga hisob-kitob va kassa xizmatlari, aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb etish, kommunal va boshqa to'lovlarni qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarga kredit berish kabi xizmatlarni taklif etmoqda. Bundan tashqari, bankning xizmat ko'rsatish tarmog'ida 105 ta xalqaro pul o'tkazmalari shoxobchasi hamda milliy valyutadagi plastik kartochka egalariga 75 ga yaqin infokiosk xizmat ko'rsatmoqda.



3-rasm. Ipoteka-bank kapitali (mlrd. so'm)¹²

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bankning umumiy kapitali 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 53,5 mlrd. so'mga oshgan, boshqacha aytganda joriy yildagi bank kapitali bazis yilga nisbatan 22,8 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, bankning xizmat turlarining ko'paygani hamda bank aksiyalarining bozordagi nominal bahosi ham sezilarli darajada oshganligidir.



4-rasm. Ipoteka-bank kredit portfelining muddati bo'yicha taqsimoti (mlrd. so'm)¹³

Yuqoridagi rasmda biz bankning 2014 yildagi kredit portfelining tarkibida uzoq muddatli kreditlarni qisqa muddatli kreditlarga nisbatan ko'p ulushni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni uzoq muddatli kreditlar salmog'i

¹² "Ipoteka bank" ATIB ma'lumotlari.

¹³ "Ipoteka bank" ATIB ma'lumotlari.

qisqa muddatli kreditlar salmog'iga nisbatan 6,5 barobar ko'pdir. Buning sababi esa aholining bankning xizmat turlariga nisbatan ishonchini ortganligi hamda mijozlarga, ayniqsa, yosh oilalarga beriladigan ipoteka kreditlarining salmog'ini oshganligidir.

Quyidagi jadvalda esa biz bankning kredit portfelini respublikamizdagi tarmoqlar bo'yicha tarkibini ko'rishimi hamda tahlil qilishimiz mumkin.

4-jadval.

Bank kredit portfelininig tarmoqlar bo'yicha tarkibi (mlrd.so'm)¹⁴

	Kredit summasi
Sanoat	1480,8
Savdo va umumiy ovqatlanish	210,8
Qurilish	157,0
Qishloq xo'jaligi	76,7
Transport va kommunikatsiya	39,5
Maishiy xizmat ko'rsatish	6,3
Boshqa tarmoqlar	549,7
Jami	2521,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning kredit portfelining katta qismini sanoat tarmog'i tashkil etgan, keyingi katta ulushini esa savdo va umumiy ovqatlanish, qurilish tarmoqlari tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, bank sanoatni rivojlanishi uchun o'zining katta va zarur xissasini qo'shmoqda. Bugungi kunda respublikamizda qurilish sohasida ham e'tiborli va ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Demak, bank ham bu sohaning rivoji uchun qulay bo'lgan kredit siyosati orqali o'zining xissasini qo'shmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni "Ipoteka bank" ATIB tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab kichik

¹⁴ "Ipoteka bank" ATIB ma'lumotlari.

biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga keng erkinlik va imtiyozlar berish iqtisodiyotning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali, yangi ish o'rinlari yaratilishiga hamda aholiga barqaror daromad manbalarini joriy etilishiga imkoniyat yaratmoqda.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan ko'plab qaror va farmonlar ijrosini izchil ta'minlash maqsadida, bank filiallari tomonidan tadbirkorlik harakati qo'llab-quvvatlanib, kichik biznes vakillariga qulay shart-sharoitlar asosida xizmat ko'rsatib kelinmoqda. Bu orqali, yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston bozorini raqobatbardosh, import o'mini bosuvchi tovarlar bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlashga Ipoteka-bank tomonidan o'ziga yarasha hissa qo'shib kelinmoqda.


Yuqoridagi fikrlar isboti sifatida, 2015 yil 1 yanvar holatiga, birgina Ipoteka-bank tizimida 67 mingdan ortiq kichik biznes sub'ektlariga xizmat ko'rsatib kelinayotganligini ta'kidlash mumkin. 2014 yilda kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Ipoteka-bank tomonidan, ularga 662,3 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30 foizga o'sishiga erishildi. Ajratilgan kreditlar hisobiga kichik biznes vakillari tomonidan 15 700 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Kichik biznes vakillari orasida Ipoteka-bankning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qurilish sohalarini rivojlantirish uchun yo'naltiriladigan mikrokreditlariga talab yildan yilga ortib bormoqda. Zero, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun, boshlang'ich sarmoyani bank tomonidan berilishi, kichik korxonalar ochishda qo'l kelishi shubhasiz. 2014 yil davomida bankimiz tomonidan umumiy summasi qariyb 161,5 mlrd. so'mlik mikrokreditlar ajratildi.

Ajratilgan kreditlarni yo'nalishlar qirqimida ko'radigan bo'lsak, kreditlar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan yo'nalishlarga ajratilmoqda. Masalan, bankning barcha filiallari orqali ayol tadbirkorlikni

qo'llab-quvvatlash maqsadida qariyb 75,0 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi. Sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga, iqtisodiyotning aksariyat ulushi qishloq xo'jaligi bilan bog'lanib qolgan viloyatlarda nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish uchun 162,3 mlrd. so'm va servis sohasini rivojlantirish uchun 107,7 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida 96,7 mlrd. so'mlik kreditlar ajratilildi, bu esa o'z navbatida aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xalqimiz ishbilarmonlik ko'nikmalarini mustahkamlash, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida 8,3 mlrd. so'm, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik loyihalari uchun 15,5 mlrd. so'm, yosh oilalarga o'z bizneslarini tashkil qilish uchun 10,7 mlrd. so'm miqdorida mikrokreditlar ajratildi.



5-rasm. Kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar miqdori (mlrd. so'm)¹⁵

Rasmdan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda yuqori e'tibor qaratilgan hamda maksimal darajada qo'llab-quvvatlanadigan bog'in, ya'ni kichik biznes sub'yektlariga ajratilgan kreditlar miqdori joriy yilda bazis yilga nisbatan sezilarli darajada (31,2 %) o'sgan. Buning asosiy sababi mamlakatimizda kichik

¹⁵ "Ipoteka bank" ATIB ma'lumotlari.

biznes sub'yektlarining miqdorini oshib borayotgani hamda ularga nisbatan berilayotgan imtiyozli kreditlarning turini oshib borishi natijasida mijozlarga yengillik yaratib berilishi, ishonchni ortishidir.

5-jadval.

Kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlarning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (mlrd.so'm)¹⁶

	Kredit summasi
Savdo va umumiy ovqatlanish	222,6
Sanoat	151,8
Qurilish	89,0
Maishiy xizmat ko'rsatish	51,7
Qishloq xo'jaligi	37,2
Boshqa tarmoqlar	109,8
Jami	662,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat olib borayotgan kichik biznes sub'yektlariga nisbatan kredirlar miqdori ko'p ulushni tashkil etadi. Buning asosiy sababi esa bugungi kunda xizmat ko'rsatish sektorida ham faoliyat ko'rsatayotgan biznes sub'yektlari sonini ortib borayotganligi hamda ularga nisbatan bankning sifatli xizmat turlari, imtiyozli kreditlar berilishi natijasida ularning bankka nisbatan ishonchini ortishi hisoblanadi.

¹⁶ "Ipoteka bank" ATIB ma'lumotlari

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BANKLARDA INNOVATSION BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Iqtisodiyotni modernizasiyalashda “Ipoteka bank” ATIBning ishtirokini yaxshilash istiqbollari

Iqtisodiyotimizga xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilish, bugungi kunda, shubhasiz yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasida o'ziga xos mablag' manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, mamlakatimiz hukumati tomonidan ushbu masalaga keng miqyosda e'tibor qaratilib, bu borada bir qator qaror va farmonlarning hayotga tadbqiq qilinayotganligi, xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yurtimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda banklarning kapitallashuv darajasi muhim ahamiyatga ega. Bu esa tijorat banklarining korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etishi, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qo'l keladi.

Shuningdek, tijorat banki kapitalining doimiy o'sishi orqali xorijiy banklarning ishonchini qozonishga erishiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizga yanada qo'proq xorijiy banklarning mablag'larini jalb qilishga zamin yaratadi.

Ipoteka-bank mamlakatimizning yetakchi banklaridan biri sifatida yirik investitsiya loyihalarini moliyalash imkoniyatiga ega. 2014 yilda bank faoliyatida investitsion loyihalarni tanlash, tahlil qilish, ularni milliy va xorijiy valyutada kreditlash ishlari yanada rivojlandi. Bunda asosiy e'tibor korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va iqtisodiyotning boshqa real sektorlari yo'nalishidagi zamonaviy texnologiyalarni respublikamizga kiritish hamda yangi ishchi o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan loyihalarni

moliyalashtirishga qaratilmoqda.

Investitsiya dasturi doirasida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonida banklarning moliyaviy ko'magi katta bo'lmoqda. Bank ham bu borada yetarlicha sarmoya yo'naltirib, ishlab chiqarish jarayonining kengayishi, korxonalar faoliyatining yuksalishiga qo'shayotgan hissassi yil sayin ortmoqda.

Jumladan, bank tomonidan 2014 yil mobaynida 624,1 mlrd. so'mlik investitsion xarakterga ega bo'lgan kreditlar ajratilib, yil yakunida investitsion kreditlar portfeli 1 676,2 trln. so'mni tashkil etdi. Ipoteka-bankning investitsion loyihalarni moliyalash bilan bog'liq sa'y-harakatlari Bank mijozlarining eksportbop, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o'sishiga xizmat qildi. Universal bank sifatida mijozlarga eksport-import operatsiyalar bo'yicha xizmatlarni amalga oshirar ekan, Ipoteka-bankning investitsion faoliyatining samarasi 2014 yil davomida 1 090,7 mln. AQSh dollarlik 590 ta eksport kontraktlari ro'yxatga olinganida o'z aksini topdi. Eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida bank xizmat ko'rsatayotgan 200 dan ortiq eksporter korxonaning hisobiga 711,3 mln. AQSh dollari miqdorida eksport tushumi kelib tushdi.


Aholi omonatlarini jalb qilish.

Aholining bo'sh pul mablag'larini bank omonatlariga jalb qilish orqali ular uchun nafaqat daromad manbai, shu bilan birga bank uchun ham qo'shimcha resurs manbaidir. Shuningdek, bu orqali iqtisodiyotda pul mablag'larini bankdan tashqari jamg'arilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu vaziyatdan kelib chiqib, bu borada aholining manfaatlarini ham inobatga olgan holda, Ipoteka-bank tomonidan aholi uchun jozibador omonat turlari joriy etildi.

Shunga ko'ra, 2014 yilda aholidan jalb qilingan omonatlar miqdori qoldig'i 473,3 mlrd. so'mga yetib, yil boshiga nisbatan 109,6 mlrd. so'mga yoki 30,1 foizga oshdi.

Buning yaqqol isboti sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 31 oktyabrdagi PQ-991-sonli Qaroriga muvofiq Respublika tijorat banklari o'rtasida 2014 yil yakunlariga ko'ra, aholi bo'sh pul mablag'larini banklardagi omonatlarga jalb qilish bo'yicha o'tkazilgan tanlovdan natijalariga ko'ra, "Aholi omonatlarni jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi banki" nominatsiyasida Ipoteka-bank 3-o'rinni, "Shaharlarda aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi jamg'arma/maxsus kassasi" nominatsiyasida bankning Sirdaryo viloyat filialining 1-sonli jamg'arma kassasi 3-o'rinni egallaganligini yeltirish mumkin.

Bugungi kunda Ipoteka-bank tomonidan aholiga milliy va xorijiy valyutada 20 ga yaqin omonat turlari taklif etib kelinmoqda. Omonatchilarga qulaylik yaratish maqsadida, SMS-xabar xizmati yanada takomillashtirildi. Bundan tashqari veb-sayt orqali shaxsiy kabinet xizmati yo'lga qo'yilib, mijozga o'zining omonat hisobvarag'i qoldig'i, unga hisoblangan foizlar va omonat hisobvarag'ida bajarilgan barcha amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rish imkoniyati ham yaratilgan.



6-rasm. Jismoniy shaxslarning omonatlari qoldig'i (mlrd. so'm)¹⁷

¹⁷ "Ipoteka bank" ATIB ma'lumotlari.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, bankning jismoniy shaxslarning omonat qoldig'i joriy yilda bazis yilga nisbatan 30,1% ga o'sgan. Buning asosiy sababi, jismoniy shaxslarga nisbatan bank tomonidan taklif etilayotgan samarali va ishonchli omonat turlari hamda yuqiri foiz stavkalaridir.

Jismoniy shaxslarni kreditlash.

Ipoteka-bank - o'z nomidan kelib chiqqan holda, aholiga, asosan yosh oilalarga ipoteka kreditlari ajratishni o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi sifatida qarab keladi. Bunda, yuqorida ta'kidlangan, bank tomonidan moliyalatirish orqali qurilgan uy-joylarni aholi uchun qulay shartlarda ipoteka krediti orqali ularga sotish yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, Ipoteka-bank tomonidan moliyalashtirib qurilgan ko'p qavatli uylardagi xonadonlar uchun 275 ta oilaga 27,3 mlrd. so'm miqdorida ipoteka kreditlari 12 yil muddatga 1 yil imtiyozli davr bilan ajratildi.

Lekin, bank aholi uchun taklif qilayotgan ipoteka tizimining qulayliklari bu bilan chegaralanmaydi. Birgina 2014 yilning o'zida bank bergan moliyaviy imkoniyat yordami bilan 1701 ta oila o'z uy-joyiga ega bo'ldi. Buning uchun ularga jami 160,4 mlrd. so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi, shundan, 491 ta yosh oilalar Ipoteka-bank ajratgan 46,5 mlrd. so'm miqdorida ipoteka kreditlari evaziga hayotlarini ana shunday mustahkam asosga qurmoqdalar.


Ipoteka krediti tizimini rivojlantirish bo'yicha tashkil qilingan ushbu tadbirlar natijasida 2014 yilda ajratilgan ipoteka kreditlari 2013 yilga nisbatan qariyb 3 barobar oshdi.

Yangi uy-joyga ega bo'lgandan keyin uni maishiy texnikalar va mebellar bilan jihozlash ham darkor. Bank uy-ro'zg'or texnikasi ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan yaqin aloqa o'rnatish bilan birga jismoniy shaxslarga uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilishi va xizmatlardan foydalanishi uchun iste'mol kreditlari berishni davom ettirmoqda. 2014 yilda Ipoteka-bank tomonidan 6 887 ta oilaga 46,1 mlrd. so'mlik iste'mol kreditlari ajratildi. Ushbu kreditlar turli uy jihozlari, maishiy texnika, mebel sotib olish, o'qish va davolanish uchun hamda yosh oilalarning to'y tantanalarini o'tkazish kabi

maqsadlarga berilmoqda. Joriy yilda ajratilgan bunday kreditlar o'tgan yilga nisbatan 5,9 mlrd. so'm ko'pdir.


Bu yo'nalishda tashkil qilingan tadbirlardan bir misol tariqasida, O'zeltexsanoat uyushmasi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilgan ishni keltirish mumkin.

Kompleks xizmat ko'rsatish tamoyilidan foydalangan holda bankning kredit siyosatiga O'zbekistonning "Artel", "Roison", "Zenit-elektroniks" zavodlari ishlab chiqarayotgan televizor, konditsioner, sovutgich, gaz plitasi kabi mahsulotlarini aholiga qulay shartlarda iste'mol kreditlari berish orqali sotib olish kiritildi. Bu bilan bir vaqtning o'zida ikki maqsadga erishilmoqda: korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarini tezroq sotib, aylanma mablag'larini tiklab olmoqdalar, aholining ham zamonaviy maishiy texnikaga bo'lgan ehtiyoji qondirilmoqda va turmush farovonligi oshmoqda.



Yuqoridagi rasm nazar tashlasak, bank tomonidan aholiga ajratilgan iste'mol kreditlarining o'sganini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni joriy yilda bazis yilga nisbatan 14,6% ga o'sgan. Buning sababi uzoq muddatli foiz stavkali iste'mol kreditlarining bank tomonidan taklif qilinayotganligidir.

¹⁸ "Ipoteka bank" ATIB ma'lumotlari



8-rasm. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari (mlrd.so'm)¹⁹

Rasmdagi ma'lumotlar shuni ifodalaydiki, aholiga bank tonidan berilgan ipoteka kreditlarining miqdori ham 2014 yilda 2013 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ya'ni 2014 yilda bu ko'rsatkich 60,8%ga o'sgan. Buning sababi, yosh oilalar sonini ko'payotgani hamda turli tarmoqlarga uzoq muddatga imtiyozli foizlarda berilayotgan kreditlarni joriy qilinganidir.

Bugungi kunda respublikada naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi, jumladan plastik kartochkalar bilan amaliyotlar ko'lami tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1325-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi "Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qarorlari bu borada jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ishlarga o'ziga xos ustun vazifasini o'tadi.

2012 yildan boshlab Ipoteka-bankda "Uzkart-EMV" milliy banklararo plastik kartochkalar to'lov tizimini joriy etish bo'yicha ishlar tashkil qilindi. 2014 yil yakuniga ko'ra, bankning muomaladagi kartochkalari soni 1 mln. 234 mingdan oshib ketdi. Ularning 524 mingtasi "on-layn" kartalardir.

¹⁹ "Ipoteka bank" ATIB ma'lumotlari

Shu bilan birga, 2015 yil 1 yanvar holatiga bankning 17490 ga yaqin savdo shoxobchalariga o‘matilgan terminallari aholiga xizmat ko‘rsatmoqda. Ushbu terminallar orqali yangi “on-layn” kartochkalaridan to‘lovlarni qabul qilish yo‘lga qo‘yilgan.

2014 yil davomida Ipoteka-bank tomonidan muomaladagi plastik kartochkalari orqali naqdsiz 2 trln. 759 mlrd. so‘mlik tranzaksiyalar amalga oshirildi. Amaliyotlar hajmining 2013 yilga nisbatan 364 mlrd. so‘mga yoki 13 foizga ko‘paygani ham aholining Ipoteka-bankka bo‘lgan ishonchi mustahkamlanayotganligining yana bir izohidir.

3.2. Banklarni innovatsion boshqarishning xorij tajribasi

Dunyoda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, aholi turmush darajasining yaxshilanishi va farovonligining ortishi, turli mamlakatlar miqyosida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining tubdan o‘zgarishi barcha turdagi bank-moliya xizmatlarini taqdim etuvchi muassasalar oldiga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Aytish joizki, 2007-2008 yillar mobaynida boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xalqaro moliya bozorining barqarorligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu jarayondagi asosiy muammolardan biri bu – dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bank tizimining inqirozga qarshi chora-tadbirlarini ishlab chiqilmaganligi yoki inqiroz xavf solishi mumkin bo‘lgan risklarni oldindan ko‘ra bilmaganligi bank tizimiga salbiy ta‘sirini o‘tkazdi.

Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joizdir: “Inqiroz yillarida ko‘plab davlatlar o‘z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag‘larni yo‘naltirishga majbur bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, bir qator davlatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzlarini keltirib chiqardi, moliyaviy nomutanosiblikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi”.

Har bir mamlakat iqtisodiyotining qon tomiri, deb e'tirof etilgan bank tizimi aynan bank aktivlarini to'g'ri boshqarish, bank mijozlariga xolisona xizmat ko'rsatish, to'lovga qobiliyatlilik darajasini haqqoniy baholash, bank ta'rif siyosatini odil yuritilishi, valyuta operatsiyalarining oqilona tashkil qilinganligi, bank zaxira kapitalini samarali boshqarish kabi masalalarga bog'liq. Ma'lum bir darajada global inqirozning asoratlarini kamaytirish sharoitida mamlakat bank tizimini barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida jahon mamlakatlari miqyosida orttirilgan tajribalarni o'rganish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni takrorlamaslik hamda ular erishgan yutuqlarni tijorat banklari amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardagi o'ziga xos erishilgan yutuqlarni mamlakatimiz bank amaliyotiga joriy qilish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir. Shu jihatdan, Buyuk Britaniya bank tizimi faoliyatini tadqiq qilish hamda ularning sohadagi boy tajribalarini o'rganish maqsadga moliqdir. Buyuk Britaniya bank tizimi bevosita o'zining samarali bank faoliyatida erishilgan tajribalariga ega bo'lib, mamlakatning rivojlanishida hamda rivojlanayotgan davlatlarga moliyaviy mablag'lari bilan amaliy jihatdan yordam berayotganligi davlatning barqaror bank tizimiga egaligidan dalolat beradi. Bu esa, Buyuk Britaniyada bank faoliyatini tartibga solish va uni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni tizimli yo'lga qo'yilganligining yana bir bor isbotidir.

Ta'kidlash o'rinliki, Buyuk Britaniyada bank tizimi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqish yo'llarini tezda o'zlashtirdi, bunda asosan, bank biznesini rivojlantirish, bank faoliyatida internet-banking tizimini takomillashtirish, bank tizimida innovatsion fondlarni tashkil etish va moliyalashtirish, fundamental, amaliy va innovatsiya tadqiqotlar loyihalarini ishlab chiqish orqali daromad manbalarini oshirish, ishlab chiqarish liniyalarini yaratish va venchur-kapital qo'yish tizimlarini qo'llashga hamda moliyalashtirish orqali erishish asosiy maqsad bo'ldi.

Bundan ko'rinadiki, Buyuk Britaniya bank-moliya tizimi real iqtisodiyotning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabini qondirgan holda, transchegaraviy kapital oqimlari, xususan, kreditlar ajratishda muhim rol o'ynamoqda.

Buyuk Britaniya bank-moliya tizimi bevosita o'z aktivlarini ko'paytirish va bank biznesini rivojlantirish maqsadida innovatsiyalarni moliyalashtirishga bo'lgan talabni qondirishda maxsus innovatsion fondni tashkil qilish orqali erishish chora-tadbirlarini ko'rmoqda.

Buyuk Britaniyada banklar innovatsion fondni tashkil qilishda ishtirok etadi va bu jarayonda ekspertiza ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu faoliyat asosan, ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birlamchi ekspertiza jarayonida texnologiyalar yaratish va ishlab chiqish jarayonida fundamental, amaliy va innovatsiya tadqiqot loyihalari dastlabki ekspertizadan o'tkaziladi. Bu jarayonda har bir innovatorning marketing kontseptsiyasi va biznes rejalari ishlab chiqilib, o'z navbatida bu orqali yangi ish o'rinlarini yaratishga imkon tug'iladi. Muhimi, bu faoliyatni 25000 funt-sterlinggacha boshlang'ich mablag' bilan moliyalashtirish ko'zda tutiladi.

Ikkilamchi ekspertiza jarayonida yirik tarzda ishlab chiqarish liniyalarini yaratishga harakat qilinib, buning natijasida 10-20 tagacha yangi ish o'rinlari yaratiladi. Innovatsion fond mablag'larini to'g'ri yo'naltirish ta'sirida bevosita ishlab chiqarishni kengaytirishga va ish bilan ta'minlash salmog'ini oshirishga erishiladi.

Shuningdek, Buyuk Britaniya bank-moliya tizimi orqali moliyalashtirishda kapital qo'yishning zamonaviy shakllaridan biri bo'lgan venchur usulidan foydalanish ham yaxshi samara bermoqda. Bu borada, investorlar mablag'laridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega, albatta.

2013 yil holatiga ko'ra, Buyuk Britaniyada 200 dan ortiq tijorat banklari faoliyat yuritgan. 1-jadvalda Angliya banklarining eng yirik 10 taligi keltirilgan bo'lib, ular asosan bank aktivlari jihatidan yuqoriligi hamda aktivlarni samarali boshqarishi bilan ajralib turadi.

**Buyuk Britaniyada yirik 10 talik reytingiga ega bo'lgan banklar faoliyati
ko'rsatkichlari tahlili.²⁰**

Banklar ro'yxati	Bank ofislari manzili	Bank aktivlari (funt terlingda)	Bank aktivlari (AQSh dollarida)
HSBC Bank	London	662 710	1 267 777
Royal Bank of Scotland	Edinburg	583 467	1 124 108
Barclays Bank	London	522 089	1 005 857
HBOS	Edinburg	442 881	853 255
Lloyds TSB	London	279 843	539 146
Standard Chartered	London	73 543	141 688
Alliance	Lestershir	49 967	96 266
Northern Rock	Nyukasl-na-Tayne	42 790	82 439
Co-operative Bank	Manchester	39 000	71 327
Bradford	Bingli	35 458	68 313

Buyuk Britaniya bank-moliya tizimidagi islohotlar katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning sohada erishgan yutuqlarini o'rganishimiz va mamlakatimiz bank tizimi barqarorligini ta'minlashda joriy qilish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Bevosita mamlakatimizda bank sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori darajada baholagan holda Yurtboshimiz tomonidan 2010 yilning 26 noyabrda imzolangan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 1438-sonli qaror bu borada muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlamoq joiz. Zero, ushbu qarorga muvofiq, respublikamiz bank tizimining xususiy kapitalini 2011-2015 yillarda 2,1 marotaba ko'paytirish vazifasi belgilangan.

Mamlakatda bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish ko'rsatkichlari, xalqaro indikatorlar asosida tahlil qilinganda, yuqori darajadagi baholarga muvofiq keladi. Jumladan, bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi

²⁰ Manba: www.bankofengland.org.

ko'rsatkichi 24,2 foizni tashkil qilib, bu bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etdi.

So'nggi 4 yilda mamlakatimiz tijorat banklarining umumiy kapitali 2,5 barobar ko'paydi va bugungi kunda 5,3 trillion so'mdan oshib ketdi. Yurtimizda, 2008 yildan boshlab tijorat banklari tomonidan xalqaro reyting olish uchun «Mudis», «Fitch Reytings», «Standart end Purs», «Tompson Faynenshl Bank Votch», «Japan Kredit Reyting Ejensi», «Reyting Ejensi Malayziya» kabi nufuzli xalqaro reyting kompaniyalari bilan o'zaro hamkorlik ishlari davom ettirilmoqda.

Gap shundaki, bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi xalqaro talablarga qat'iy javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Buni «Standard & Poor's», «Moody's», «Fitch ratings» kabi xalqaro reyting agentliklari tomonidan so'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimiga muttasil ravishda "barqaror" reyting darajasini berib kelinayotgani ham tasdiqlab turibdi.

"...O'tgan yili bank tizimini rivojlantirish va isloh etish masalasi ham e'tiborimiz markazida bo'ldi. Banklarning resurs bazasi kengayib, mustahkamlanmoqda, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanmoqda. 2013-yilda iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlarning yalpi hajmi 30 foizga oshdi.

O'tgan yili tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga, 2000-yilga nisbatan esa 46 barobardan ziyod ko'paydi. Natijada bugungi kunda banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil etmoqda, bu esa bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan talabdan uch barobar ko'pdir.

Bank tizimining likvidligi 65 foizdan ziyod bo'lib, bu jahon amaliyotida umumiy tarzda qabul qilingan, «yuqori» deb ataladigan ko'rsatkichdan 2,2

barobar ortiqdir. Kredit portfeli jami mablag'larining 80 foizga yaqini ichki manbalar ulushiga to'g'ri kelmoqda...²¹.

Xalqarotajribalarnio'rganishimizaynan,
BuyukBritaniyadaerishilgantajribalarnimamlakatimizbankamaliyotigajoriyqilish daquyidagitakliflarniishlabchiqqanholdaamalgaoshirishmaqsadgamolikdir:

- Bank faoliyatining huquqiy bazasi takomillashganligini hisobga olgan holda bu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan bo'ladigan moliya munosabatlarini huquqiy tartibga solish mexanizmini takomillashtirish lozim;

- Xalqaro tajribalarni doimiy tarzda tadqiq qilish, ularning sohada erishgan yutuqlarini respublika bank sektoriga joriy qilish dolzarb masalalardan biridir. Shu jihatdan jahon bank amaliyotida orttirilgan tajribalarni yangilik sifatida o'rganish va qo'llash bo'yicha chora-tadbirlarni jonlantirish maqsadga muvofiqdir;

- Buyuk Britaniyada ishlab chiqarish tarmoqlarini moliyalashtirishda innovatsion fondning mavjudligi bevosita ishlab chiqarishni jadal rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Respublikamizda ham bu kabi innovatsion fondlarni tashkil qilish, banklarning innovatsion mahsulotlar yaratishdagi ishtirokini ko'paytirish, bu sohada bank xodimlari malakasini oshirish, ularning bank-biznesini takomillashtirishdagi innovatorlik qobiliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Buyuk Britaniya bank tizimi dunyo banklari o'rtasida yuqori reyting ko'rsatkichlariga ega banklar sifatida e'tirof etilishi bilan birga, mukammal bank tizimini shakllantirganligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan aloqaning yaxshi yo'lga qo'yilganligi, bank faoliyatda bank aktivlarini boshqarish tizimini takomillashganligi, bank faoliyatida innovatsion jarayonlarning jadalligi, bank xodimlarining yuqori ish

²¹ O'zbekiston respublikasi prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2014

tajribasiga egaligi hamda bank-moliya siyosatini to'g'ri olib borayotganligi bilan o'ziga xos tarzda ajralib turadi.

Rossiya bank tizimi 18-19 asrlarda Xazina banklarining vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan. Mazkur banklarning asosiy maqsadi Rossiya pomehchiklari sinfining pul jamg'armalariga ko'maklashishga qaratilgan edi. Iqtisodning rivojlanib borishi natijasida aksioner va tijorat banklarining roli kuchayib bordi. 1914 yilda ularning soni 50 tadan ortdi hamda filiallar soni 778 tani tashkil etdi. Rossiyada ilk bor tashkil etilgan aktsioner tijorat banki Peterburg xususiy bankidir (1864) va uning ustav fondi 5 mln.rubl miqdorida aniqlandi.

Oktyabr revolyutsiyasiga qadar Rossiyada ikki pog'onali kredit tizimi mavjud edi.

1. Bank tizimi (Markaziy Bank, tijorat banklari va ipoteka banklari).
2. Ixtisoslashtirilgan nobank institutlari (Sug'urta kompaniyalari. Kredit urtoqlik jamiyatlari va boshqa bir qator institutlari).

Revolutsiyadan so'ng ya'ni 1918 yildan boshlab ko'rsatib o'tilgan muassasalar milliylashtirildi:(natsionalizatsiya).

30-yillarda kredit tizimini qayta tashkil etilishi natijasida banklarni yiriklashtirish va markazlashtirish yuz berdi. Natijada faqat Davlat banki (Gosbank), Srobank, Vneshtorgbank va sberkassalar faoliyat ko'rsata boshladi. Buning kelib chiqishini asosiy sababi davlat tomonidan xalq xo'jaligini industriashtirish va kollektivlashtirish ya'ni aniqroq, qilib aytganda planli xo'jalik siyosatini olib borilishi edi. Rossiyada keyingi paytda banklar soni keskin darajada ortib ketdi.

Banklar faoliyatini litsenziyalash tartibi har bir davlatda ba'zi xususiyatlarga ko'ra bir biridan farq qiladi.

Mazkur jarayonni ba'zi rivojlangan davlatlar misolida ko'rib chiqamiz.

Italiyada 80 yillarga qadar qattiq litsenziyalash chegaralari mavjud bo'lgan bo'lsa, bu tartib 80-yillardan so'ng bir muncha engillashtirildi.

Ushbu mamlakatda hozirgi paytda litsenziyalashning qo'yidagi talablari mavjud:

a) eng kam miqdordagi dastlabki bank sarmoyasi 8 mln.dollar.

b) bank ma'muriyati kompetentligining yetarli darajasi.

c) bank ta'sischi tomonidan bankning strategik rivojlanishi to'g'risida to'liq ma'lumot berish.

d) shuningdek bank aksionerlarga ham talablar o'rnatilgan.

Jumladan: bankni oqilona va barqaror boshqarishni ta'minlash.

Bank mablag'larini uning aksionerlari-nomoliyaviy kompaniyalar tomonidan ishlatilishi oqibatida bank omonatchilari va bankning o'ziga zarar keltirilishini oldini olish maqsadida bank operatsiyalari bilan nobank operatsiyalari o'rtasida aniq chegaralar o'rnatish.

Italiya bank qonunchiligiga asosan bank kapitalida 5 foizdan ziyod ulushga ega bo'lgan mijozlarga bankni boshqarish xuquqini olishga ruxsat beriladi. Nobank va nomoliyaviy muassasalarning bank kapitalidagi ulushi 15 foizdan oshishi ta'qiqlanadi.

Bugungi kunda yangi bank filiallarini ochishda Italiya bankidan dastlabki majburiy ruxsatnomani olish talab etilmaydi. Biroq nazorat organlari agar bankda moliyaviy yoki boshqaruv ahvoli to'g'ri kelmasa bank filiallarini kengaytirish bo'yicha chegaralar qo'yishi mumkin.

Oddiy aktsiya emissiyasi hisobiga bank kapitali miqdorini oshirish uchun Italiya Bankidan maxsus ruxsatnoma talab etiladi. Bunda bankning taqsimlanmagan foyda miqdorini kamaytirmagan xolda yangi aktsiyalar bo'yicha dividendlarni to'lay olish qobiliyati e'tiborga olinadi.

Buyuk Britaniyada uzoq, vaqt mobaynida va 70 yillarning oxirigacha yangi banklarni ochishda ruyxatdan o'tkazish sistemasi amal qilib keldi. Bank ochish uchun maxsus litsenziya talab etilmas edi.

Mazkur mamlakatda banklarni tashkil etish va ularni faoliyatini tartibga solish «Kompaniyalar to'g'risida»ga (1948 y.) qonun asosida amalga oshirilgan. 1978 yildan boshlab esa banklarni ayrim operatsiyalari faqat Angliya Banki

ruxsati bilan qilingan. Hozirgi paytda Angliya banklaridan litsenziya talab etilmaydi. Lekin ular Angliya banki tomonidan o`rnatilgan talablarga javob bermog`i lozim. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- a) Ustav sarmoyasi miqdori 5 mln.funt sterlingdan kam bo`lmasligi kerak.
- b) Yetarli diapazondagi bank xizmatlarini ko`rsatish.
- c) Bank raxbariyatining ishbilarmonlik nufuziga egaligi.

Yuqoridagi talablar asosida litsenziyalanadigan banklar toifasiga yirik Liring banklari. Savdo banklar va Hisob uylari, shuningdek chet el banklarining filiallari kiradi.

Banklarni innovatsion boshqarishning asosiy xususiyatlaridan yana biri, bu ma'sul masalani xal qilishda jamoaviy usulning mavjudligidir. Hozirgi davrda bank boshqaruvining aniq yo`nalishi qanday. Ularni ikkita yirik yo`nalishga ajratish mumkin. Birinchi guruh savollariga, bankni ixtiyorida bo`lgan iqtisodiy muammolarni boshqarishni tashkil etish, ikkinchi guruh savollariga esa bank jamoasini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Bularning har biri alohida yo`nalishlardan iborat. Lekin biz ularning har birini alohida alohida ko`rib chiqa olmaymiz. Yo`nalishlarning barchasi bank siyosatiga bevosita bog`liqdir. Bank siyosatining tahlili natijasini aniqroq chiqarish va uni olib borish bank marketingiga chambarchas bog`liqdir. Bu masala ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida o`zining birlamchi ko`rsatkichlaridan ekanligini namoyon qildi. Bank marketingi bu bozorda bo`layotgan jarayonlarni to`la hisobga olgan holda kompaniya va firma faoliyatini bajarish va tashkil etish tizimidir. Bank marketingi esa shu ma'lum bir regionda va regiondan tashqarida bank xizmatlariga bo`lgan talab va taklifni o`rganish, bank xizmatlariga bo`lgan talabni boshqarish va qondirish, turli banklar tomonidan amalga oshirilayotgan bir turdagi operatsiyalar harajatini taqqoslash, innovatsion reklamani amalga oshirish tizimidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida banklar faoliyatini innovatsion boshqarishning yana bir xususiyati bank biznes xususiyatiga bevosita bog'liqdir. Bank biznesi boshqa tarmoqlarga qaraganda uning farqi maxsus «tovar» «pul» bilan faoliyat ko'rsatishidir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarni va maqsadlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlarga:

- pul bozori sharoitida xo'jalik sub'ekti sifatida innovatsion omillar orqali bank ishini rentabelligini ta'minlash;

- kreditor va jamgarmachilar qiziqishini ta'minlash maqsadida, bankni ishonchli sherik sifatida uning balansi likviditligini ta'minlash;

- bank mijozlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarini xajmi, turi, yangi xizmat turlarini ishlab chiqish, sifatini yaxshilagan holda ular orasidagi aloqalarni doimiyligini ta'minlash uchun mijozlar talablarini maksimal qondirish;

- jamoaning ishlab chiqarish, tijorat hamda ijtimoiy muammolarni birgalikda hisobga olgan holda xal qilish;

- mutaxassislarning potentsialidan to'laroq foyda olish maqsadida ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni joylariga qo'yish.

Bu maqsadlarga erishish uchun bank boshqaruvi miqdoriy va sifat hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarga tayanadi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar bank boshqaruvining barcha sohalariga tegishlidir. Miqdoriy ko'rsatkichlarga: bank mijozlari va raqamlari soni, depozit xajmi, innovatsion xizmatlar, kredit qo'yilmalari, operatsiya va xizmatlar xajmi va boshqalar misol bo'la oladi.

Banklarni innovatsion boshqarishning asosiy xususiyatlaridan yana biri, bu ma'sul masalarni xal qilishda jamoaviy usulning mavjudligidir. Hozirgi davrda bank boshqaruvining aniq yo'nalishi qanday. Ularni ikkita yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi guruh savollariga, bankni ixtiyorida bo'lgan iqtisodiy

muammolarni boshqarishni tashkil etish, ikkinchi guruh savollariga esa bank jamoasini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Bank siyosatining tahlili natijasini aniqroq chiqarish va uni olib borish bank marketingiga chambarchas bog'liqdir. Bu masala ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining birlamchi ko'rsatkichlaridan ekanligini namoyon qildi. Bank marketingi bu bozorda bo'layotgan jarayonlarni to'la hisobga olgan holda kompaniya va firma faoliyatini bajarish va tashkil etish tizimidir. Bank marketingi esa shu ma'lum bir regionda va regiondan tashqarida bank xizmatlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, bank xizmatlariga bo'lgan talabni boshqarish va qondirish, turli banklar tomonidan amalga oshirilayotgan bir turdagi operatsiyalar harajatini taqqoslash, innovatsion reklamani amalga oshirish tizimidir.

Bank marketingi birinchi navbatda bankning potentsial mijozlarini qidirib topishini bildiradi. Bank mijozni hamda o'zining iqtisodiy potentsialini birgalikda qo'shib o'rganadi. Bank xizmatini yangi turlariga (innovatsion turlariga) bo'lgan talabni o'rganish hozirgi zamon banklarining eng dolzarb masalasidir. Oxirgi yillarda bank muamolasiga kiritilgan; Faktoring, lizing, ishonch (trast), vositachilik xizmatlari va ularga bo'lgan talabni o'rganib chiqish shular jumlasiga kiradi. Tijorat banklarining maslaxat xizmati, qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalari ham bundan mustasno emasdir.

Xulosalardan kelib chiqqan holda «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki innovatsion faoliyatini yaxshilash orqali moliyaviy samaradorlikka erishishda quyidagi takliflarni bildiramiz:

- bank likvidlilik darajasini oshirib borish;
- bank kredit berish strategiyasini puhta ishlab chiqish;
- bank nazoratini oshirib borish va moliyaviy faoliyatini tahlil qilib borish zarur;
- banklarning moliya bozoridagi mavqeini oshirish va daromadlilik darjasini ko'tarish maqsadida bank xizmatlari turlarini oshirish va ularni mijozlarga yaqinlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi– T.: “O'zbekiston”, 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1995 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1996 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Xalq so'zi, 09.01.2002 y.
5. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni, 11.12. 2003 y.
6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 04.04. 2002 y.
7. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonuni. 15.09. 2008 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida”gi 2008 yil 5 apreldagi Farmoni.
9. “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. Toshkent. 2007 y. 12 iyul.
10. “Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. Toshkent. 2008 y. 27 sentyabr.
11. «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 20.06.2005
12. «Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini

jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005.

13. «Tadbirkorlik sub'yektlarini xuquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005.

14. «Tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent. 15.06.2005.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada islox qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. «Xalq so'zi» 16.04.2005.

16. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Xalq so'zi» 12.01.2005.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010-yil 15-dekabrdagi PQ-1442 sonli qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida»gi 1455-sonli Qarori.

19. «Pul mablag'larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori. 05.08.2002 y.

20. «Pul-kredit ko'rsatkichlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori. 04.02.2003 y.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot. – 2012 yil.

22. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so’zi, 2010 yil 30 yanvar.

23. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.

24. Karimov I.A. “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz”. T: O’zbekiston, 2000, 17 bet.

25. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari”. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

26. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash - bizning oliy maqsadimiz. 17- Jild. – T.: O’zbekiston, NMIU 2009. – 280 bet.

27. Karimov I.A. “Jahon inqirozining oqibatlarini yengish mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko’tarilish sari”. 18- Jild. – T.: O’zbekiston, NMIU 2010. – 198 bet.

II. Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo’lib o’tgan qo’shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent – «Iqtisodiyot» - 2010 yil.

2. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. T.: “Moliya” 2012, 510 b.
3. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: TDIU, 2010. 398 b.
4. Гвозденко А.А. Страхование. Учебник.–М-ТК, Велхи, 2012.-464 с.
5. Жарковская Е.П. Банковское дело. Учебник.- М.,ОМЕГА-Л, 2013.- 440 с
6. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник.-М., Финанси и кредит., 2012.,654 с.
7. Миляков Н.В. «Финанси». Учебник.-М., ИНФРА-М, 2010.-543 с.
8. «Инновационное развитие: Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями» Под редакцией Б.З Милнера, Инфра-М, 2010 г.
9. Дорофеев В.Д., Шмелева А.Н. «Инновационный менеджмент» Учебное пособие для вузов. -М: «Феникс» . 2009 г .

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: “O'zbekiston”, 2011.yil.
2. O'zbekiston Iqtisodiy axborotnomasi. /№ 3/2011 y.
3. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2006-2011 годы. Т., 2012 г.

IV. Internet saytlari.

1. <http://www.cer.uz> “Экономическое обозрение” jurnalining sayti
2. <http://www.google.com> “Ma’lumotlar qidiruv sayti”
3. <http://www.uza.uz> “O’zbekiston axborot agentligi” sayti
4. <http://www.stat.uz> Davlat Statistika qo’mitasining sayti
5. <http://www.minjust.uz>
6. www.bank.uz
7. www.ipotekabank.uz